

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA  
O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI  
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI  
PEDAGOGIKA FAKULTETI  
BOSHLANG‘ICH VA MAKTABGACHA TA‘LIM METODIKASI  
KAFEDRASI

*Qo‘lyozma huquqida*

5111700 - BTSTI TA‘LIM YO‘NALISHI BITIRUVCHISI  
MAHAMMADJONOVA (ABDUMANNOPOVA) DILDORANING  
BAKALAVR AKADEMIK DARAJASINI OLIH UCHUN YOZGAN

# **BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**MAVZU: “1-SINF O‘QISH KITOBIDAGI  
«O‘ZBEKISTON – MENING VATANIM» BO‘LIMI USTIDA ISHLASH”**

Ilmiy rahbar: S.Ismoilova

**Andijon 2018**

## MUNDARIJA

<b>Kirish</b> .....	2-7	
<b>I bob. O‘qish darslarining vazifalari</b>		
1.1. O‘qish darslarida nutq o‘stirish .....	8-18	
1.2. Yaxshi o‘qish sifatlari va ularning shakllantirish yo‘llari.....	19-28	
<b>II bob. Bo‘limdagi she‘riy asarlarni o‘rgatish</b>		
2.1. Boshlang‘ich sinfda she‘riy asarlar ustida ishlash .....	29-34	
2.2. “Vatan – bu’ , “Vatan» she‘rlarini ifodali o‘qishra o‘rgatish .....	35-43	
2.3. “Qish» she‘rini suhbat metodi asosida o‘rgatish.....	44-46	
<b>III bob. Boshlang‘ich sinflarda badiiy asar ustida ishlash .....</b>		47-48
3.1. Hikoya ustida ishlash metodikasi .....	49-52	
3.2.«Buyuklar vatani», «Yagonadir Vatanning sening» hikoyalarini suhbat metodi asosida o‘rgatish .....	53-56	
3.3. «Suv – shifo» hikoyasini o‘rgatishda “ <b>Qisqa savolga qisqa javob</b> ” o‘yinidan foydalanish .....	56-58	
<b>IV bob Bo‘limdagi maqol va topishmoq ustida ishlash</b>		
4.1. Maqollar donishmandlik ramzi .....	59-62	
4.2.Topishmoqning ta‘limiyvatarbiyaviy ahamiyati.....	63-66	
<b>Xulosa</b> .....	67-70	
<b>Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati</b> .....	68-72	

## Kirish

**Mavzuning dolzarbligi.** “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratish asosiy maqsad qilib olingan .

Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash bilan uzviy bog'liq bo'lgan uzluksiz ta'lim tizimi orqali har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirishni nazarda tutadi.

"Ta'lim to'g'risida"gi qonun va Kadrlar tayyorlash bo'yicha milliy dasturni hayotga tatbiq etish ishlari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi deb hisoblansin” deb “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni 06.10.1997 y. n pf-1869 ta'lim-tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish, barkamol avlodni voyaga etkazish to'g'risida”gi Qonunda ko'rsatib qo'yilgan.

Respublikada ta'lim-tarbiya tizimini tubdan o'zgartirish yo'lida olib borilayotgan islohotlarni amalga oshirish va bu borada qabul qilingan hujjatlar mohiyatini keng jamoatchilik tomonidan chuqur anglab olinishiga har tomonlama sharoit yaratish - davlat boshqaruvi, huquqni muhofaza qilish idoralari, ta'lim-tarbiya muassasalari xodimlarining eng dolzarb vazifalari etib belgilansin <sup>1</sup>,deb ko'rsatib qo'yilgan.

Ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida amalga oshirilayotgan o'zgarishlarning mohiyati va mazmuni jamiyat yangilanishi bilan chambarchas bog'liqdir. Bu o'zgarishlar jarayonida o'sib kelayotga avlodni tarbiyalash, unga ta'lim berish jarayonini sifat jihatdan takomillashtirishni taqoza etmoqda.

---

<sup>1</sup> ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ПРЕЗИДЕНТИНИНГ ФАРМОНИ 06.10.1997 й. N ПФ-1869  
ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ ВА КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ ТИЗИМИНИ ТУБДАН ИСЛОХ ҚИЛИШ,  
БАРҚАМОЛ АВЛОДНИ ВОЯГА ЕТКАЗИШ ТЎҒРИСИДА  
Ушбу Фармонга қуйидагиларга мувофиқ ўзгартиришлар киритилган  
ЎЗР Президентининг 03.04.2000 й. ПФ-2570-сон Фармони,  
ЎЗР Президентининг 01.07.2003 й. ПФ-3272-сон Фармони

1-sinf o'qish darslikida berilgan «O'zbekiston – mening Vatanim» bo'limidagi matnlar boshlang'ich sinf o'quvchilariga asar g'oyasi va mazmunini o'zi to'liq tushushib, so'ng o'quvchilarga asardagi g'oyaviy yo'nalish, timsollar va badiiy vositalarning rolini tununtirib berishi kerak. Matnlardagi so'z va iboralarning qayta-qayta takrorlanib turishi, ohangdorligi, ta'sirchanligi bolalarda hosil bo'layotgan ruhiy holatlarga o'qituvchining Ona Vatanimizga bag'ishlangan matnlarni qay darajada etkazib berayotganligiga bog'liq. Boshlang'ich sinflarda Ona Vatanimizga bag'ishlangan matnlarni o'qib-o'rgatishdan asosiy maqsad o'quvchilarda muayyan axloqiy sifatlarni shakllantirish, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, xalqimiz va Vatanimiz shon-shuhratini asrlar osha butun jahonga taratib kelayotgan benazir ajdodlarimizning o'z e'tiqodlari yo'lidagi fidoiyligi, ularda umuminsoniy va milliy g'urur to'g'risida, vatandoshlarimizning vatan daxlsizligi hamda ilm-ma'rifat yo'lidagi kurashlari haqidagi bilimlar berish va tushuntirib borishdan iborat.

Mamlakatimiz kelajagi bugun maktablarda ta'lim-tarbiya olayotgan farzandlarimizga, ularning har tomonlama yetuk va barkamol insonlar bolib yetishishlariga bog'liq. Bu mas'uliyatli vazifani bajarish hozirgi zamon o'qituvchisi, ayniqsa, boshlang'ich sinf o'qituvchilaridan o'z kasbiy mahoratlarini oshirib borish, ilg'or pedagogik texnologiyalar mohiyatini anglash va ulardan o'z darslarida unumli foydalanishni taqozo etadi. Ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni faol qo'llash, ta'lim sifat samaradorligini oshirish, tahlil qilish va amaliyotga joriy etish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir.

Mustaqillik yillarida chiqarilgan «Ta'lim to'qrisidagi qonun» va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» bizdan o'z soqasining qaqiqiy bilimdonlari bo'lgan, zamonaviy fan-texnika sirlarini to'liq egallagan, raqobatdosh, erkin fikrlay oladigan o'quvchilarni – kadrlarni tayyorlab berishni taqozo etmoqda. O'zbekistonning ertangi kuni ana shunday yoshlarga boqliq bo'lib qoldi.

O'sib kelayotgan yosh avlodning qar tomonlama kamol topishi taraqqiyotni ta'minlovchi omil bo'lishi bilan birga, yosh avlodning shaxs sifatida faollashuvida

ham yuqori o'rin tutadi. Vatanimiz ravnaqi yoshlarga, jamiyatning turli soqalari uchun tayyorlanayotgan kadrlarga bevosita bo'liqdir. Ta'lim tizimining dolzarb vazifalaridan biri bilimdon, milliy va umumbashariy qadriyatlarni egallagan, eng muhimi, yuqori intellekt egasi bo'lgan mutaxassislarni yetishtirishdir.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ta'lim, xususan, umumta'lim maktablariga yuklangan vazifalardan biri har tomonlama yetuk komil insonni tarbiyalash.

1-sinf "O'qish kitobi" "O'zbekiston – mening vatanim" bo'limidagi asarlarni o'quvchilarga o'rgatish, yosh avlod qalbida vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish, erk, mustaqillik haqidagi bilimlarni kengaytirish, Vatan oldidagi farzandlik burchi va mas'uliyatini teran anglash, Vatanga muhabbat tuyg'usini shakllantirish, Vatan tushunchasini kengaytirish, Vatan tushunchasini kengaytirish, o'z Vatanga muhabbatli bo'lishga, uni qadrlashga o'rgatish, Birinchi Prezidentiizning «Bolalar – bizning kelajagimiz» gapining ma'nosini anglashlariga erishish. Mazkur bo'limga kiritilgan she'rlar muallifi bilan o'quvchilarni tanishtirish, ularning murg'ak qalbida ona vatanga muhabbat uyg'otish, Vatani uchun fidoyi insonlar qilib yetishishlariga zamin hozirlash, Vatan tuyg'usini shakllantirish maqsad qilib qo'yilgan .

Boshlang'ich sinfda o'qish darslari bolalarning tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirish, erkin fikrlay olish, o'zgalar fikrini anglash, so'z boyligini oshirish, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqotda bo'la olish kabi ko'nikma va malakalarga xizmat qiladi. Bu vazifalarni amalga oshirish ko'p jihatdan o'qituvchining mahoratiga bog'liq.

Mazkur Bitiruv malakaviy ishrining maqsad va vazifalari, dars jarayonida o'quvchilarning faolligi va fikrlashini oshirishga qaratilganligi, boshlang'ich sinfdanoq o'quvchilarga Vatan tuyg'usini shakllantirish, Vatan oldidagi farzandlik burchi va mas'uliyatini teran anglash maqsad qilib qo'yilganligi bilan bugungi kunda dolzarb hisoblanadi va **mavzuning dolzarbligini** belgilab beradi.

Bitiruv malakaviy ishining O'zbekiston Respublikasining ilmiy tadqiqotlar borasidagi ustuvor yo'nalishlarga uyg'unligi. Mazkur bitiruv malakaviy ishi O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" asosida ta'lim tizimidagi ustuvor muammolardan biri - o'sib kelayotgan avlodning ma'naviy kamolotini ta'minlashda so'z ma'nosini anglashga o'rgatish hamda mustaqil fikrlashning o'rni va ahamiyatini belgilash, uning nazariy, ilmiy-metodik asoslarini yaratishga qaratilgan.

Davlat ta'lim standartlariga amal qilgan holda «O'zbekiston – mening vatanim» bo'limiga kiritilgan she'rlarning o'quvchilarga o'rgatish, o'quvchilarning aqliy rivojlanishni, o'z-o'zini anglash salohiyatini rivojlantirish, ularda milliy va umuminsoniy qadriyatlarini tarkib toptirish hamda ijtimoiy hayotini yo'lini topishda ko'maklashish ta'lim olishni davom ettirishlari uchun zarur bo'lgan bilimlar berishdan iborat.

Yosh avlod qalbida vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish, erk, mustaqillik haqidagi bilimlarni kengaytirish tadqiqotning asosiy maqsadlaridan hisoblanadi.

Tadqiqot vazifasi har bir darsni yuqori saviyada bo'lishi uchun o'quv ko'rgazmali qurollarni rang-barangligini taminlash, sodda, tushinarli qilib tahlili ustida ishlash, mustahkamlash uchun tarqatmalar tayyorlash, pedtexnologiyalardan foydalangan holda o'quv samaradorligini oshirish yo'llarini qo'llashdan iborat.

Mazkur bitiruv malakaviy ishda o'quvchilarda milliy qadriyatlarimizning chuqur mohiyatini anglash hissini shakllantirish, dars jarayonida interfaol usullardan foydalanish, so'zning qanday qudratli kuchga ega ekanligini boshlang'ich ta'lim davridanoq tushuntirib borish zarurligini ko'rsatish lozim.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida, eng avvalo, o'qish, o'rganish istagi va ko'nikmasini hosil qilish zarur. Buning uchun o'qituvchi o'quvchining qiziqish va intilishlarini hisobga olmog'i, ularga yangidan yangi ma'lumotlarni yetkazmog'i bugungi kunning talablaridan biridir.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Mazkur ishni tayyorlash davomida «Ta'lim to'g'risida»gi qonunlari, O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»dan, shuningdek, o'zbek bolalar shoir va yozuvchilarning ijodlaridan keng foydalandim.

**Bitiruv malakaviy ish ob'ekti.** Umumta'lim maktablar uchun hozirda amalda bo'lgan DTSlari, o'quv darsliklari va dasturlar, 1-sinf o'quvchilari bilan olib borilgan o'qish darsi va shu mavzuga oid chop etilgan ilmiy-metodik adabiyotlar xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikalarining «Ta'lim to'g'risida»gi qonunlari, O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», O'zbekiston Oliy Kengashining «Umumiy ta'limni tashkil etish to'g'risida»gi qarori, til va tafakkur bilan bog'liq ilmiy adabiyotlar, shuningdek tafakkurni rivojlantirishga oid ilmiy-metodik adabiyotlar Bitiruv malakaviy ishimizning metodologii asosini tashkil etadi

Bitiruv malakaviy ish predmeti. O'qish darslarida o'quvchilar lug'at boyligini oshirish, vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish, mustaqillik haqidagi bilimlarni kengaytirish, nutqini o'stirishni tashkil etishning shakl va mazmuni, ta'lim jarayonida samarali ta'lim metodlaridan unumli foydalanish.

**Rejalashtirilgan bitiruv malakaviy ishidan kutiladigan ilmiy yangiliklar.** Mazkur bitiruv malakaviy ishi 1-sinf o'qish kitobidagi «O'zbekiston – mening vatanim» bo'limidagi she'rlarning o'quvchilarga o'rgatish orqali vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish, o'z Vataniga munosib kishilar qilib tarbiyalash tafakkuri va nutqini o'stirish, har tomonlama barkamol shaxslarni tarbiyalash va kamolga etkazishning ilmiy-pedagogik, falsafiy, lisoniy, nutqiy, psixologik tamoyillarini belgilash.

Ishning metodologik asoslariga:

- Ta'lim to'g'risidagi Qonun.
- Kadrlar tayyorlash milliy dasturi.
- Prezidentimiz tomonidan chiqarilgan qarorlar, uning asarlari kiradi.

Qomusiy olimlarimiz tomonidan ta'lim-tarbiyaga oid fikrlari ishimizning metodologik asosini tashkil etadi.

Ishning metodikasiga esa ona tili o'qitish metodikasining so'z ustida ishlash, bog'lanishli nutq ustida ishlash metodlari, tadqiqotning metodlariga tahlil qilish, sinov ishlari, test savollari, nazariy taqqoslash, solishtirish, umumlashtirish metodlari kiradi. Umuman olganda, bitiruv malakaviy ishi, boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasining “Badiiy asar ustida ishlash”, “Turli janrlar ustida ishlash metodikasi”ni har tomonlama qamrab oladi.

Bitiruv malakaviy ish Kirish, 3 bob (I bob O'qish darslarining vazifalari.

II bob «O'zbekiston – mening Vatanim» bo'limdagi she'riy asarlarni o'rgatish, III bob «O'zbekiston – mening Vatanim» bo'limdagi hikoyalar ustida ishlash, IV bob bo'limdagi maqol va topishmoq ustida ishlash”, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, — sahifani o'z ichiga oladi. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan Bitiruv malakaviy ishlariga qo'yiladigan talablar darajasida rasmiylashtirilgan.



## **I bob. O‘qish darslarining vazifalari**

### **I.1. O‘qish darslarida nutq o‘stirish**

O‘qish dasturini tuzishda g‘oyaviy-estetik, mavsumiy, tadrijiy asoslar hisobga olinadi. Shunday qilib, o‘quv materiallari bolalarga ta‘lim berish, ularni tarbiyalashda muhim bo‘lgan borliq haqidagi bilimlar va insoniy munosabatlarni o‘z ichiga oladi. O‘quvchilarni badiiy, adabiy asarlar bilan tanishtirish orqali kitobxonlik madaniyatini tarkib toptirish o‘qish dasturlarining tub mohiyatini tashkil etadi.

O‘tmishda xalqimiz boshidan kechirgan muhim voqea-hodisalar aks ettirilgan asarlarni o‘qish orqali o‘quvchilarda o‘qish malakalari shakllana boradi. Ona yurt daxlsizligi yo‘lida ajdodlarimiz olib borgan mardonavor kurashlar tarixi haqida hikoya qilingan asarlar bolalarda vatanga muhabbat tuyg‘ularini tarbiyalaydi.

Boshlang‘ich ta‘lim o‘quv dasturidan o‘rin olgan vatan mavzusidagi asarlar o‘quvchilarni mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy madaniy-ma‘rifiy hayoti va xalqimizning bunyodkorlik yo‘lidagi olib borayotgan ishlari bilan tanishtirishga yordam beradi. Dasturning vatanga, inson e‘tiqodi va ma‘naviyatiga bag‘ishlangan mavzularini o‘rganish o‘quvchilarni ma‘naviy-axloqiy tuyg‘ularni tarbiyalashda alohida o‘rin tutadi.

Istiqlol tufayli erishgan yutuqlarimiz haqidagi asarlar milliy g‘urur tuyg‘ularini tarbiyalash, vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish, mustaqillik haqidagi bilimlarni kengaytirishga xizmat qiladi.

1-sinfning o‘quv yili oxirida bolalar vatan va uning tabiati, insoniy qadriyatlari haqida kichik-kichik asarlarni o‘qiydilar.

2-sinfda shakl va mazmun jihatdan uncha murakkab bo‘lmagan vatan, ona tabiat, istiqlol, kishilarning hayoti va mehnati, axloqiy munosabatlar haqidagi asarlar bilan tanishadilar.

Boshlang'ich sinf „O'qish kitobi" darsliklariga kiritilgan muayyan mavzular o'quvchilarni badiiy adabiyotning sehrli olamiga olib kirishi, dunyoqarashlarini milliy istiqlol mafkurasi asosida to'g'ri shakllanti-rishga qaratilishi bilan belgilanadi. Shunga ko'ra, o'qish darslarining yetakchi xususiyati o'quvchilarning savodxonligini ta'minlash bilan birga, o'quvchilarni milliy mafkura asosida yuksak axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga qaratiladi.

Boshlang'ich sinfiarning o'qish darslarida o'rganiladigan asarlarning mavzu doirasi ancha keng bo'lib, ular ona tabiat, yil fasllari, xalq og'zaki ijodi, mehnatga muhabbat, asosiy bayram sanalari, milliy is-tiqlol va ma'naviyat kabi umumiy mavzular doirasida bidashtirilgan.

O'qish darslari uchun tanlangan mavzular o'quvchilarga kundalik hayot, mustaqillikni mustahkamlash va insoniy munosabatlar bo'yicha ham bilim va tarbiya berishni ko'zda tutadi. Bular ichida istiqlol, vatan, ma'naviyat va tabiat haqidagi mavzular alohida ajralib turadi. Ulardan ko'zlangan maqsad o'zlikni anglash, istiqlol, vatan va tabiat bilan bog'liq tuyg'ularni uyg'otishdir.

O'sib kelayotgan yosh avlodlarini har tomonlama barkamol avlod bo'lib hayotga kirib kelishini ta'minlash har birimiz oldimizdagi muhim masalalardan biri. Inson, avvalo, o'quvchilik davridan boshlab shakllanadi. Shuning uchun ma'naviy-axloqiy tarbiya borasida kamchiliklarga yo'l qo'ymaslik butun ta'lim tizimida yaxlit tizim va aniq chora-tadbirlar ko'lamida, muntazam va uzluksiz ish olib borish zarur. Ma'naviyat haqida qanchalik ko'p gapirilmasin, uni jamiyat, inson ongiga singdirish uchun doimiy ish olib borilmasa, o'quvchi qalbiga yo'l topa olmaymiz. Davlatimiz rahbari tomonidan ta'lim tizimi inson qalbi va tafakkuriga bevosita ta'sir o'tkazadigan soha sifatida baholandi. Agar shu nuqtai nazardan qaraydigan bo'lsak, keyingi darsliklarda bu talabga alohida e'tibor berilganligi kuzatiladi. Matnlar tanlanishi mavzularga mos, shuningdek, ularda davr ruhi sezilib turadi. Ularda mustaqilligimiz va Vatanimiz, milliy qadriyatlarimizga oid materiallar jamlangan.

Yuksak ma'naviyat ta'lim-tarbiyaning harakatlantiruvchi kuchi sifatida belgilanganligi mamlakatimiz ta'lim tizimi afzalliklaridan yana biridir. Aslida ma'naviyat, uning taqdiri bugungi kunda butun insoniyatning muhim muammosiga aylanib ulgurdi. Xalqimizning bag'rikengligi sharqona demokratiyaning asosidir, demokratiya, avvalo ma'naviy qadriyatlardan kuch oladi va oziqlanadi.

Yaratilgan dastur va darsliklar bosqichli, ketma-ketlik tamoyiliga amal qilinishi lozim. Uni tuzishda o'rta umumiy ta'limda amalda bo'lgan ona tili dasturi (intuktiv-2)da berilgan ta'lim mazmuni va shakli e'tiborga olindi. Ana shu asosda o'rta umumiy ta'lim bilan o'rta maxsus ta'limning uzviyligi ta'minlandi.

“Boshlang'ich ta'lim davlat standarti”ning yaratilishi boshlang'ich ta'limni rivojlantirishga, o'quvchilarning savodxonlik malakasini yuksaltirishga, ularda ma'naviy barkamollikni ta'minlashga imkon berdi.

G'afforova T, E.Shodmonov, G.Eshturdiyeva “ muallifligida “O`qish kitiobi” Umumiy o`rta ta'lim maktablarining 1-sinfi uchun darslik “Sharq” nashyoti - matbaa aktsionerlik kompaniyasi bosh tahririyatida Toshkent – 2016 yilda nashrdan chiqqan bo`lib, u 8 bo`limdan iborat.

I bo`lim “Ona yurtim – oltin beshigim” deb nomlangan bo`lib, bo`lim Po`lat Mo`minning “Vatan – bu” she'ri bilan boshlanadi. She'rda Vatanni yurakka qiyoslarga bo`lsa, Qutlibeka Rahimboyevaning «Buyuklar vatani», Dilshod Rajabning «Yurt qalqonlari»she'r Armiyamizni yurt qalqoni ekenligi, Eson Rahimovning «Ota rozi – Vatan rozi», she'rida yaxshi farzand dono elning ko`z ziyosi ekanligini tasvirlagan. Bo`limda bulardan tashqari Erkin Maliknig «Suv – shifo», Tursunboy Adashboyevning «Qish» kabi she'rlar ham berilgan bo`lib, yosh avlodning murg`ak qalbida o`z Vataninin sevish, uni ko`z qorachig`iday asrash, Vataniga mehr uyg`otish kabi g`oyalar bilan alohida o`rin egallaydi<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> G'afforova T, E.Shodmonov, G.Eshturdiyeva. “O`qish kitiobi”. Umumiy o`rta ta'lim . maktablarining 1-sinfi uchun darslik. “Sharq” nashyoti -matbaa aktsionerlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent – 2016.5-b.

Bo'limga kirgan har bir she'r to'laonli bolalarcha yaratilgan, uning zaminida o'quvchilarga Vatan eng muqaddas dargoh ekanligi, bilim manbai bo'lgan kitobni asrab-avaylash kabi hisslatlarini shaklantirishga xizmat qiladi.

Bo'limdagi har bir mavzu alohida ahamiyat kasb etadi va bo'lim so'ngida savol topshiriqlar berilganligi bu bo'limning yutug'idir.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun yaratilayotgan o'quv-metodik adabiyotni o'rganish natijasida, shuni alohida aytish mumkinki, bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim tizimining boshlang'ich sinflari uchun o'quv-metodik adabiyotlar majmui yaratilgan. Jumladan, 1-4-sinflar o'qish va ona tili darsligi va shu asosda yaratilgan metodik qo'llanmalar o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqlarini o'stirishga qaratilganligi bilan xarakterlanadi.

O'qish darsining nihoyatda katta ta'limiy va tarbiyaviy roli o'quv predmeti sifatida o'quvchilar nutqining takomilida, bolalarning kitobxonlik madaniyatining yuksalishida, kitobni to'liq badiiy idrok etish qobiliyatining shakllanishi va rivojida beqiyos ahamiyatga molik. Bunda o'qituvchi va o'quvchi hamkorligi hal qiluvchi omildir. Ana shu omil ishga to'liq tushsagina o'quvchi shaxsdagi g'oyaviy, axloqiy-ma'naviy, estetik rivojlanish sodir bo'ladi. Undagi tasavvur imkonlari kengayib, ijodiy hamkorlik qobiliyati kamol topadi, ayni paytda hikoya qilish, ifodali o'qish, fikrni og'zaki va yozma bayon eta olish ko'nikma va malakalari, iste'dod va qobiliyatlari shakllanadi va rivojlanadi. Demak, ona tili va o'qish fani oldidagi vazifalar nihoyatda ko'p va xilma-xildir.

Ma'lumki, o'quvchilarni o'qishga o'rgatish savod o'rgatish jarayonining tayyorgarlik davriga to'g'ri kelib, bu davr bolalarni o'qishga o'rgatish uchun zamin hozirlaydi va bolalarda o'zgalar nutqini eshitish, diqqatni to'plash, til birliklarini (tovush, bo'g'in, so'z, gap) farqlash, ajratish, ularning vazifalarini anglash kabi xususiyatlar shakllantiriladi. Bular o'quvchilarning o'qishni muvafaqiyatli egallashlariga yordam beradi.

Savod o'rgatish jarayonidagi o'qish darslarining asosiy vazifasi o'quvchilarga tovush va harfni tanishtirish, ularning to'g'ri talaffuzini o'rgatish orqali bolalarda to'g'ri, ongli, ifodali o'qish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Shuningdek, o'quvchilar lug'atini boyitish, bog'lanishli nutqini o'stirish, bilimmi boyitish, tafakkurini shakllantirish, eshitish, qabul qilish sezgisini o'stirishda ham bu davr mas'uliyatligi bilan alohida o'rin tutadi.

O'qishga o'rgatish uchun, avvalo, o'quvchi tovush va harf bilan yaxshi tanishtirilishi lozim. Tovush va harf bilan tanishtirishda bo'g'indan tovushni ajratish tamoyiliga rioya qilinadi.

O'qish darslari savod o'rgatish davrida o'quvchilarni bo'g'in, so'z va gaplar bilan tanishtirish va ularni o'qish, rasmlar asosida hikoya qilish tarzida uyushtirilsa, o'qish texnikasi egallangandan so'ng o'qish muayyan mavzular bo'yicha tanlangan badiiy, ilmiy-ommabop matnlar yuzasidan olib boriladi.

Boshlang'ich sinfiarning o'qish darslari o'z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko'ra ta'lim tizimida alohida o'rin tutadi. Negaki uning zaminida savodxonlik va axloqiy-ta'limiy tarbiya asoslari turadi. Shuning uchun ham boshqa predmetlar ta'limini o'qish ta'limisiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

O'quvchi matnni to'g'ri, tez, tushunib o'qish, mazmunini o'zlashtirish bilan ilk bor o'qish darslarida yuzlashadi. O'qish darslari orqali o'quvchilarning Davlat ta'lim standarti (DTS) talablari bo'yicha o'zlashtirishlari ko'zda tutilgan o'quv-biluv ko'nikma-malakalari hamda bilimlarni egallashlariga yo'l ochiladi. Aynan o'qish ta'limida insonning, avvalo, o'zligini, qolaversa olamni anglashga bo'lgan intilishlariga turtki beriladi.

Shu maqsadda „O'qish kitobi“ darsliklariga ona tabiat, atrofimizni o'rab turgan olam, Vatanimiz tarixi va bugungi qiyofasi, kattalar va bolalar hayoti, mehnatsevarlik, istiqloq va milliy-ma'naviy qadriyatlar, xalqlar do'stligi va tinchlik

kabi turli mavzular bo'yicha atroflicha tushunchalar berishga mo'ljallangan badiiy, axloqiy-ta'limiy, ilmiy-ommabop asarlar kiritiladi.<sup>1</sup>

Boshlang'ich sinf „O'qish kitobi" darsliklariga kiritilgan muayyan mavzular o'quvchilarni badiiy adabiyotning sehri olamiga olib kirishi, dunyoqarashlarini milliy istiqlol mafkurasi asosida to'g'ri shakllanti-rishga qaratilishi bilan belgilanadi. Shunga ko'ra, o'qish darslarining yetakchi xususiyati o'quvchilarning savodxonligini ta'minlash bilan birga, o'quvchilarni milliy mafkura asosida yuksak axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga qaratiladi.

Boshlang'ich sinfiarning o'qish darslarida o'rganiladigan asarlarning mavzu doirasi ancha keng bo'lib, ular ona tabiat, yil fasllari, xalq og'zaki ijodi, mehnatga muhabbat, asosiy bayram sanalari, milliy istiqlol va ma'naviyat kabi umumiy mavzular doirasida yaratilgan.

O'qish darslari uchun tanlangan mavzular o'quvchilarga kundalik hayot, mustaqillikni mustahkamlash va insoniy munosabatlar bo'yicha ham bilim va tarbiya berishni ko'zda tutadi. Bular ichida istiqlol, vatan, ma'naviyat va tabiat haqidagi mavzular alohida ajralib turadi. Ulardan ko'zlangan maqsad o'zlikni anglash, istiqlol, vatan va tabiat bilan bog'liq tuyg'ularni uyg'otishdir.

Inson hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan o'qish faoliyati barcha predmet darslarida amalga oshiriladi. Lekin o'qishga o'rgatish yo'l-yo'riqlarini o'qish metodikasi ishlab chiqadi. O'qish metodikasi kichik yoshdagi o'quvchilarning umumiy rivojlanishi, psixologiya, xususiy metodika sohasidagi yutuqlar asosida takomillashtirilib boriladi.

O'qish darslarining samaradorligi ko'p jihatdan ta'lim metodlarining to'g'ri tanlanishiga bog'liq. Binobarin, fanning o'zi kabi o'qitish metodlari ham doimiy rivojlanishda bo'ladi. Masalan, eski maktablarda o'qish quruq yod olish metodi asosida o'rgatilgan bo'lsa, hozir izohli o'qish asosida olib boriladi. Yod olish metodida matndagi so'zlarga izoh berishga, ma'nosini

---

<sup>1 1</sup> Qosimova K., Matjonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. T., TDPU. 2008. 67-b.

tushuntirishga, o'qilganni qayta hikoyalashga, umuman olganda, o'qishning ongli bo'lishiga mutlaqo e'tibor berilmagan. Ularda ko'proq to'g'ri talaffuz, qiroat bilan o'qish, ifodali o'qish nazarda tutilgan.

Umuman, „O'qish kitobi" darsliklaridagi barcha mavzular o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish bilan birga, ularning lug'atini boyitishga, og'zaki va yozma nutqini to'g'ri shakllantirish va nutq madaniyatini o'stirishga ham qaratiladi.

Amaldagi „O'qish kitobi" darsliklarida materiallarning sinfdan sinfga o'tgan sari mavzu jihatidan ham, mazmun jihatidan ham kengaya borishi hisobga olingan. Masalan, 1-sinfda o'rgatiladigan „Ajdodlarimiz - faxrimiz", Ilm - aql chirog'i", „Zumrad bahor", „Kumush qish" kabi mavzular 2-4-sinflarda ham davom ettirilgan. Bu esa o'quvchilarning oldingi bilimlarini to'ldiradi va boyitadi.

Uzluksiz ta'limning boshqa bosqichlaridan farqli o'laroq, boshlang'ich sinflarning o'qish darslarida o'quvchilarning o'qish malakalarini shakllantirish, asar matni ustida ishlash ta'limning didaktik maqsadi hisoblanadi. U turli mavzudagi matnlar ustida ishlash orqali ma'naviy-ahloqiy, adabiy-estetik tarbiya bilan chambarchas bog'lab olib boriladi.

Darsliklardagi har bir mavzu uchun tanlangan matnlarning janriy rang-barangligiga, poetik mukanimalligiga, o'quvchilarning bilim darajasi va yosh xususiyatlariga mos kelishiga alohida e'tibor qaratiladi.

O'quvchilar darsliklar yordamida o'zlashtiriladigan bilim, ko'nikma va malakalarining kelajak hayotda zarur bo'lishini tushunib yetishish-lariga erishish o'qituvchilar oldidagi muhim vazifalardandir.

O'qish darslari o'quvchilarda badiiy asarlarning bir-biridan farqini ajrata olish, yozuvchining hayotiy voqealarni qanday badiiy vositalar orqali aks ettirgani va qanday obrazlar yaratganini aniqlay olish, mustaqil o'qish va asarni tahlil qilish malakasi sinfdan-sinfga o'tgan sari o'stirib boriladi. O'quvchilar adabiy ma'lumotlarni o'zlashtirish orqali badiiy asarning mazmuni, g'oyasi va ahamiyatini anglab ola boshlaydilar.

Umuman olganda, o'qish darslari oldiga qo'yiladigan didaktik vazifalar quyidagilardan iborat:

1. O'quvchilarda yaxshi o'qish sifatlari: to'g'ri, tez, ongli, ifodali o'qishlarini shakllantirish.

2. O'quvchilarni kitobdan foydalanishga, undan kerakli bilimlarni olishga o'rgatish, kitobga muhabbat uyg'otish; ularni oddiy kitobxondan chuqur mulohaza yurituvchi, ijodkor kitobxon darajasiga ko'tarish.

3. O'quvchilarning atrof-muhit haqidagi bilimlarini kengaytirish va boyitish hamda ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirish.

4. O'quvchilarni axloqiy, estetik jihatdan yetuk va mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalash.

5. O'quvchilarning bog'lanishli nutqini va adabiy-estetik tafakkurini o'stirish.

6. O'quvchilarning xayolot olamini boyitish.

7. Elementar adabiy tasavvurlarini shakllantirish<sup>1</sup>.

Shuni unutmash kerakki, har bir ta'limiy vazifani bajarishning aniq va ilmiy metodik usullari mayjud bo'lib, ular zamonaviy o'qitish usullari bilan boyitib borilmoqda. Bu vazifalar boshqalari bilan o'zaro bog'liq holda va sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlari jarayonida hal qilinadi.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ning mohiyatini uzluksiz ta'lim tizimi va uning faol ishtirokchisi erkin shaxs tashkil qiladi. Shuning uchun bilim olish, kasbiy tayyorgarlik ta'limning ham ob'ekta, ham sub'ekta hisoblanmish o'quvchidan mustaqil tafakkurni va faollikni talab qiladi.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirish ishi rejali tashkil etilsa, bu sohadagi tadbirlar muntazam ravishda amalga oshirib borilsagina u o'quvchining butun vujudiga, uning hissiyotiga, tasavvuriga, iroda va

---

<sup>1</sup> Qosimova K., Matjonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. T., TDPU. 2008. 70-b.



xarakteriga, nihoyat fikrlash faoliyati va qobiliyatiga ta'sir etib, nutqning ravon, ifodali bo'lishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu yo'l bilan nutq malakalarini rivojlantirish orqali, ularda to'g'ri so'zlash va aniq, mantiqiy fikr ifodalash salohiyati shakllanib boradi. Ularning ijodiy qobiliyati va istedodlarini rivojlantirish ro'yobga chiqaradi.

Nutq o'stirishda matnlar ustida tizimli tarzda ishlash o'quvchilarni matn yaratishga o'rgatish, ularning so'z boyligini aniqlash va rivojlantirib borish, so'z ma'nolarini to'g'ri anglash, o'z nutqlarida to'g'ri iishatish imkoniyatlarini tug'diradi.

Boshlanrich sinflarda o'quvchilar nutqini samarali tashkil etish maqsadida ob'ektiv tarzda tashkil etilgan sinov natijalariga asoslangan nutq o'stirish tizimini yaratish, boshlang'ich ta'lim metodikasi fani oldida turgan dolzarb muammolardan birilir.

Boshlang'ich sinflarda o'qitilayotgan ona tili, o'qish darslari adabiyot fanining tarkibiy qismi hisoblanadi. Dasturlarning o'qish va nutq o'stirish bo'limida o'tkaziladigan mashg'ulotlar mazmuniga; o'quvchilarni to'g'ri, ravon, ma'lum darajadagi tezlik bilan ifodali o'qishga o'rgatish; bolaning ona - Vatan, uning tabiati kishilar mehnatidagi qahramonlik, jasurlik, milliy istiqlol g'oyalarini ular ongiga singdirish kabi bilimlarni boyitish orqali o'quvchilarning bilim, ko'nikma malakalari kengaytiriladi, shakllanadi va mustahkamlanadi<sup>1</sup>.

O'qish darslarini Davlat talablari asosida hayotiy tajribalarga, kuzatishlarga suyanib, hayotga bog'lab o'tishi uning ta'sirchanligi ongli idrok etishlarini ta'minlaydi. O'qish va nutq o'stirishning ta'limiy - tarbiyaviy maqsadlari, sinflar bo'yicha o'qish mazmunini o'qish ko'nikmalarining og'zaki va yozma nutqlarini rivojlantirish usullarini, o'qish mashg'ulotlarining yozma nutq bilan bog'lanish kabi masalalar aniq kiritilgan.

---

<sup>1 1</sup> Qosimova K., Matjonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. T., TDPU. 2008

O'qish darslar davomida o'quvchilar so'zdagi harflarni bir-biriga bog'lab yozish, so'z va gaplarni kichik hamda bosh harflarni alifbe kitobida berilgan tartibda yozishga o'rgatiladi.

O'quvchi o'qilgan asar mazmunini o'qituvchi savoli yordamida aytib berishida faqat analizdan emas, sintezdan ham foydalaniladi: ayrim lavhalar o'zaro bog'lanadi (sintezlanadi), bir-biriga taqqoslanadi, ular yuzasidan muhokama yurililadi va xulosa chiqariladi.

Boshlang'ich sinflarda savol-topshiriqlarga javob berishga katta o'rin berilgan. O'qituvchining vazifasi ana shu savol-topshiriqlar ustida ishlash usullarini oldindan belgilab olishdir. Ijodiy xarakterdagi savollar o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi. 1-sinf „O'qish kitobi“dan o'rin olgan „Buyuklar vatani“ matni yuzasidan o'quvchilarni o'z fikrini aytishga undovchi „*Matn orqali buyuk bobolarimiz haqida nimalarni bilib oldingiz?*“, „*Buyuk ajdodlarimizdan yana kimlarni bilasiz?*“ kabi savollar o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini, og'zaki nutqini o'stiradi va matnni yaxshi o'zlashtirishlariga yordam beradi. Asardagi voqealar tizimiga oid savol-topshiriqlar tuzish va undan tahlil jarayonida ijodiy foydalanish ham katta ahamiyatga ega. Masalan, 1-sinf „O'qish kitobi“dagi Tursunboy Adashboyevning „Qish“ she'ri asosida „*She'rda dastlab nimalar haqida gapiriladi?*“, „*She'rdagi fikr yuritilgan narsalami ketma-ket aytib bering*“, „*Shoir qish faslini tasvirlashda qanday tasvir usullaridan foydalangan ?*“ kabi savol-topshiriqlardan foydalanish o'quvchilar faolligini oshiradi.

Boshlang'ich sinfiarning o'qish darslarida o'quvchilar nutqining o'sish darajasi to'g'ri uyushtirilgan qayta hikoyalashdir. Maktab tajribasida to'liq, qisqartirib, tanlab va ijodiy qayta hikoya qilish turlari mavjud. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun matnni to'liq yoki matnga yaqin qayta hikoyalash ancha oson, boshqa turlari esa nisbatan qiyinroqdir. Qayta hikoyalashda o'qilgan hikoya mazmuni yuzasidan o'qituvchining savoli hikoyaning detallari haqida, ayrim voqealar o'rtasidagi bog'lanishning sabab-natijalari haqida fikrlashga qaratilishi

lozim. Asar sujetining rivojlanishida qatnashuvchi shaxslar, ularning xatti-harakati asosiy rol o'ynaydi. O'quvchilar asar mazmunini unda ishtirok etuvchi shaxslar va ularning xatti-harakati, xarakterli xususiyatlarini tahlil qilish yordamida yaxshi anglab yetadilar. O'qituvchining savoli asar qahramonlari nima qiigani, ularning u yoki bu xatti-harakati qayerda va qanday sharoitda yuz bergani haqida so'zlab berishga, voqealarni izchil bayon qilinishga va o'zaro bog'liqligini yoritishga yunaltirilishi lozim.

Ko'pincha boshlang'ich sinf o'quvchilari qatnashuvchi shaxslar xatti-harakatini yaxshi tushunmasliklari, ba'zan noto'g'ri yoki yuzaki tushunishlari natijasida asar mazmunini anglab yetmaydilar. Shuning uchun ham o'qituvchi savolni juda o'ylab tuzishi, u bolani fikrlashga, o'ylashga majbur etadigan, qatnashuvchi shaxslarning xatti-harakati, voqealarning bog'lanishi yuzasidan muhokama yuritishga""undaydigan, ularni o'zaro qiyoslashga, ijobiy va salbiy tomonlarini aniqlashga yordam beradigan bo'lishi lozim. O'quvchi asarda qatnashuvchilarning xatti-harakatini qanchalik aniq ko'z oldiga keltira olsa, u hikoyaning asosiy mazmunini shunchalik chuqur tushunadi, shunchalik mustaqil qayta hikoya qilib beradi.

Umuman olganda, boshlang'ich sinf o'qish darslarida ham o'quvchilar nutqi va tafakkurining rivojlanishiga katta ahamiyat qaratiladi.

“Ta’lim to’g’risida” gi Qonun, ‘Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi’ da ta’lim berishning yangi usullarni izlab topish va uni tadbiq qilish borasida ko’p aytilgan. Shu nuqtai nazardan boshlang’ich sinflarda ham dars o’tish jarayonini takomillashtirish uchun izlanishlar olib bormoqdamiz. Shu bois o’qish darsida ayrim mavzular quyidagi usulda bayon qilinsa, bu mavzu materiallari o’quvchilar tomonidan osonlikcha o’zlashtirib olinadi.

O’qish darslariga qo’yilgan asosiy talablar:

1. O’quvchilarning ongli, to’g’ri, ifodali, tez va ichdan o’qish malakalarini shakllantirish.

2. Turli janrdagi asarlar (ertak, hikoya, she'r, masal, topishmoq, maqol)larni farqlash, qatnashuvchilarning xatti-harakatlari maqsadini anglash, voqea-hodisalarning sabab-natijali bog'lanish mohiyatini tushunishga o'rgatish.

3. Badiiy asar g'oyasi va syujetining to'g'ri idrok etilishini ta'minlash.

4. Badiiy matnlardagi tasviriy vositalarni o'zlashtirishni ta'minlash; og'zaki bog'lanishli nutqni o'stirish, qayta hikoyalash malakalarini shakllantirish, kitobga havasni kuchaytirish.

5. Badiiy asar mazmuni va g'oyasi asosida o'quvchilarning fikrlash darajasini o'stirish; ularni yuksak axloqiy ruhda (to'g'rilik, halollik, kamtarlik, samimiylik, fidoiylik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, mardlik ruhida) tarbiyalash.

## **1.2. Yaxshi o'qish sifatlari va ularning shakllantirish yo'llari**

O'qish malakasi murakkab malaka bo'lib, uni shakllantirish uzoq vaqtni talab etadi. O'qish faoliyatning asosiy turi bo'lib, o'quvchilarni g'oyaviy-siyosiy, aqliy, estetik va nutq jihatidan rivojlantirish uchun katta imkoniyat yaratadi. Bular o'qish malakasini o'stirish va takomillashtirish ustida muntazam va maqsadga muvofiq ishlash zarurligini ta'kidlaydi<sup>1</sup>.

O'qish malakalari deganda badiiy asar matnini ongli, to'g'ri, tez va ifodali o'qish tushuniladi. O'qish darslarida o'quvchilarning o'qish malakalari shakllantiriladi va takomillashtiriladi.

Ongli o'qish. Ongli o'qish yaxshi o'qishning asosiy sifati hisoblanadi. Ongli o'qish o'qilgan matnning aniq mazmunini, asarning g'oyaviy yo'nalishini, obrazlarini va badiiy vositalarining rolini tushunib o'qish, shuningdek, asarda tasvirlangan voqea-hodisalarga o'z munosabatini ifodalay olishdir. Ongli o'qish o'z navbatida, o'quvchilarning zarur hayotiy tajribasiga, so'zning leksik ma'nosini,

---

<sup>1</sup> Qosimova K., Matjonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. T., TDP. 2008.74-b.

gapda so'zlarning bog'lanishini tushunishga va bir qator metodik shartlarga bog'liq. Hozirda ongli o'qish atamasi adabiyotlarda va maktab tajribasida ikki ma'noda: birinchidan, o'qish jarayonini egallashga nisbatan o'qish texnikasi ma'nosida, ikkinchidan, keng ma'nodagi o'qishga nisbatan o'qish sifatlaridan biri ma'nosida qo'llanadi.

Matnni ongli o'qish uchun o'quvchilar to'g'ri, me'yorida o'qishni egallagan bo'lishlari va o'qish jarayonida qiynalmasligi talab etiladi. O'quvchilar matnni ongli o'qishlari uchun matn mazmuni va badiiy vositalari jihatidan tahlil qilinadi.

Ongli o'qishning muhim sharti asar qurilishi va mazmunini tushunish hisoblanadi. O'qituvchi ongli o'qishni matnni ifodali o'qishga (agar ovoz chiqarib o'qilsa) va asar mazmuni yuzasidan berilgan savollarga javobning to'g'riligiga, asar voqealari va qahramonlarning xatti-harakatiga bildirgan munosabatiga qarab baholaydi. Ongli o'qish va ifodali o'qish bir-birini taqozo qiladi, ammo bir-biriga ayrian o'xshamaydigan o'qish sifatlaridir<sup>1</sup>.

O'quvchi matnni tez va to'g'ri o'qisa-yu, anglab o'qimasa yoki uning tez o'qishi natijasida boshqalar matn mazmunini tushunmasa, to'g'ri o'qisa-yu, o'ta sekin o'qisa, nutq birliklari orasida to'xtamlatga e'tibor bermasa, matnda ifoda etilayotgan fikr tushunilmaydi. Muayyan tezlikda va to'g'ri o'qish ongli o'qishga xizmat qiladi, to'g'ri, tez va ongli o'qish esa ifodali o'qishning asosi hisoblanadi.

O'qish malakalarini egallash maktabda o'qitiladigan barcha pred-metlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishning muhim sharti hisoblanadi. O'qish faoliyatning

---

<sup>1</sup> Qosimova K., Matjonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. T., TDPU. 2008. 74-b.

asosiy turi bo'lib, o'quvchilarni g'oyaviy-siyosiy, aqliy, estetik va nutqiy tomondan rivojlantirish uchun juda katta imkoniyat yaratadi. Bu jarayon esa o'qish malakalarini o'stirish va takomillashtirish ustida tizimli va maqsadga muvoliq ishlashni talab qiladi.

O'qish malakasini egallash ancha murakkab bo'lib, uni shakllantirish uzoq vaqtni talab etadi.

To'g'ri o'qish. To'g'ri o'qish deganda xato qitmasdan, yanglishmas-dan o'qish tushuniladi, ya'ni to'g'ri o'qish so'zning tovush-harf tarkibini, grammatik shakllarini buzmasdan, so'zdagi tovush yoki bo'g'inni tushirib qoldirmay, boshqa tovushni.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida idrok etish, talaffuz qilish va matn mazmunini tushunish o'rtasida puxta sintez yo'q bo'lgani uchun ular o'qishda xatoga yo'l qo'yadilar. Bu esa matn mazmunini tushunishni qiyinlashtiradi.

To'g'ri o'qish so'zning uzun-qisqaligiga, o'quvchining so'z boyligiga, ya'ni so'zning leksik ma'nosini qanchalik bilishiga hamda so'zning bo'g'in va morfemik tarkibiga bog'liq. O'quvchilar ko'pincha quyidagi sabablarga ko'ra xatoga yo'l qo'yadilar:

1. So'zni talaffuz qilish bilan uning ma'nosini tushunish o'rtasida puxta sintez bo'lmagani uchun bola so'zning oldin tovush to-monini ko'radi, uni talaffuz qilishga oshiqadi. So'zning ma'nosini esa e'tibordan chetda qoldiradi.

2. So'z ko'p bo'g'inli bo'lib, bola uni oldin eshitmagan bo'lsa, xatoga yo'l qo'yadi.

3. So'zning ma'nosini bilmaslik tufayli xatoga yo'l qo'yadi.

4. Tez o'qiyman deb xatoga yo'l qo'yadi.

5. To'g'ri o'qish yorug'likka va yorug'likning tushishiga ham bog'liq.

6. Undosh tovush so'zning o'rtasida va oxirida kelgan yopiq bo'g'inli so'zlarni o'qishda qiynaladilar<sup>1</sup>.

---

<sup>1 1</sup> Qosimova K., Matjonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. T., TDPU. 2008. 75-b.

Xato o'qishning oldini olish uchun quyidagilar e'tiborga olinadi:

1. Matnni o'qitishdan oldin undagi o'qilishi qiyin so'z, birikma va gaplarni aniqlash va ular ustida ishlash usullarini belgilab olish. Tuzilishi murakkab so'zlarni bo'g'inlab o'qilishini mashq qildirish.

2. Matnni o'qishdan oldin uning mazmunini tushunishni qi-yinlashtiradigan so'zlarning lug'aviy ma'nosini tushuntirish. So'z ma'nosini izohlash usullarini aniqlash.

3. Vazifalarni aniq va tushunarli qilib berish.

4. Matnni diqqat-e'tibor bilan o'qishlari uchun sharoit yaratish.

5. Oldin ichda o'qitish, so'ng ovoz chiqarib o'qitish.

6. O'qitishda o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish, ya'ni matnni oson, o'rtacha qiyinlikda va qiyin o'qiladigan o'rinlarini belgilab olib, unga kuchi yetadigan o'quvchilarga oldindan taqsimlab berish.

7. O'quvchilarning o'qishini muntazam tekshirib turish.

8. Xatoning xarakteriga qarab, uni metodik tomondan to'g'ri tuzatish yo'lini aniqlash.

9. O'quvchilarni xato qilish mumkin bo'lgan o'rindan ogohlantirib turish.

10. Xatcho'pdan foydalanish.

11. Xato o'qish o'quvchining shaxsiy ko'ruv sezgisiga bog'liq bo'lsa, bu jihatni ham hisobga olish.

O'qituvchining tuzilishi murakkab so'zlarni oldindan xattaxtaga yoki kartonga bo'g'inlarga bo'lib yozib qo'yib, o'quvchilarga ovoz chiqarib birgalikda o'qitishi yaxshi natija beradi.

O'quvchilar yo'l qo'ygan xato ikki xil yo'l bilan tuzatiladi:

1. O'quvchi so'z oxiridagi qo'shimchani noto'g'ri o'qisa, uni o'qishdan to'xtatmasdan xatoni to'g'rilash mumkin.

2. Xato o'qish bilan gaplarning mazmuni buzilsa, qayta o'qitish usulidan foydalaniladi. Bunda o'quvchiga o'qigan matni yuzasidan savol berilsa, o'quvchi e'tiborli bo'lib qayta o'qiydi.

Tez o'qish. Tez o'qish me'yoriy tezlikda o'qish bo'lib, bunda o'qish sur'ati matnning mazmunini tushunishdan ajralib qolmasligi kerak. O'qish tezligi matnni tushunish tezligi bilan muvofiq ravishda o'sib borishi lozim. O'qilayotgan asar mazmunini o'zlashtirishni, matn mazmunini ongli idrok etishni ta'minlaydigan o'qish tez o'qish deyiladi.

O'qish sifatlarini yaxshi o'zlashtirgan holda o'quvchilarning o'qish sur'ati bir-biridan farq qiladi. Bu dastur talablarini bajarmadi, degan gap emas. Og'zaki nutq tempiga to'g'ri keladigan o'qish sur'ati normal tezlik hisoblanadi. Chunki o'ta tez ham, o'ta sekin o'qish ham matn mazmunini o'zlashtirishni qiyinlashtiradi.

O'qish tezligi bir daqiqada o'qiladigan so'zlar soni bilan belgilanadi. 2005-yilda e'lon qilingan o'qish dasturida 1-sinfning 2-yarim yilligida o'qish sur'ati 20-25 so'z (notanish matnni o'qish tezligi ham 20-25 so'z); o'quv yili oxirida 25-30 so'z; 2-sinfning 1-yarim yilligida matnni o'qish tezligi 30-35 so'z; 2-yarim yilligida 40-50 so'z; 3-sinfning 1-yarim yilligida 60-70 so'z; 2-yarim yilligida 70-80 so'z; 4-sinfning 1-yarim yilligida ichda ovozsiz 110-130 so'z, ovozli o'qishda 90-100 so'z deb belgilangan.

O'qish tezligi to'rt yil davomida to'g'ri va ongli o'qish bilan bog'liq holda asta ortib boradi. O'qish tezligini tekshirganda o'qituvchi o'qiladigan materialning xarakterini, ya'ni g'oyaviy-mavzuviy murakkab-ligini, so'z va gaplarning tuzilishini, ularning bolalar nutqida qay dara-jada ishlatilishini, o'qishning to'g'ri va ongli bo'lishini hisobga oladi. O'quvchilarning o'qish tezligi har xil bo'ladi, albatta. O'qituvchining vazifasi barcha o'quvchilarning o'qish tezligini, iloji boricha bir xil-likka keltirishdan iborat. O'qish sur'atini oshirishda tez aytishlarni, maqollarni yod oldirish va matnni ovoz chiqarib o'qishni mashq qilish kabilar samarali usullardan hisoblanadi.



Ifodali o'qish. Ifodali o'qish intonatsiya — ohang yordamida asarning g'oyasi va jozibasini to'g'ri, aniq, yozuvchi niyatiga mos ravishda ifodalay bilishdir. „Ifodali o'qish adabiyotni aniq va ko'rgaz-mali o'qitishning dastlabki va asosiy shaklidir“, deb ta'kidlaydi metodist olim M.A.Ribnikova. Demak, „Ifodali o'qishning asosiy vazifasi asarning mazmunini va emotsionalligini intonatsiya orqali o'quvchilarga ko'rgazmali qilib ko'rsatishdir. Ifodali o'qishning asosiy tamoyili o'qiladigan asar g'oyasi va badiiy qimmatini chuqur tushuntirishdir“.

Intonatsiya (ohang). Intonatsiya og'zaki nutqning birgalikda harakat qiluvchi elementlari: urg'u, nutq tempi va ritmi, pauza, ovozning past-balandligining yig'indisidir. Bu elementlar bir-biriga ta'sir etadi va hammasi birgalikda asarning mazmunini, g'oyasini, qahramonlarning turli kayfiyatini, ichki kechinmalarini ifodalaydi.

O'quvchilar ifodali nutq asoslarini egallashlari uchun muhim shartlar quyidagilardan iborat:

1. Nutq jarayonida nafasni to'g'ri olish va to'g'ri taqsimlay bilish.
2. Har bir tovushning to'g'ri artikulatsiyasi va aniq diksiya (burro gapirish) malakasini egallash.
3. Adabiy talaffuz me'yorlarini egallash<sup>1</sup>.

Bu shartlar faqat ifodali o'qishgagina emas, balki ifodali nutq-qa, ya'ni hikoya qilishga ham taalluqlidir. O'quvchining har qanday og'zaki hikoyasi ifodali bo'lishi zarur.

Ifodali o'qishning asosiy vositalaridan biri ovozdir. Ovoz nafas bilan uzviy bog'lanadi. Shuning uchun o'qituvchi bolalarning ifodali nutqi ustida ishlashni talaffuz qilayotganda o'z nafasini boshqara olish va ovozdan to'g'ri foydalanishga o'rgatishdan boshlaydi. Ovoz kuchi baland-pastlik, uzun-qisqalik, tezlik (temp), yoqimli-yoqimsizlik xususiyatlari bilan xarakterlanadi. O'quvchilar matn mazmuniga qarab, baland yoki past ovozda o'qish (gapirish)ga, nutqda tez, o'rtacha

---

<sup>1</sup> Qosimova K., Matjonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. T., TDPU. 2008. 78-b.

yoki sekin tempni tanlashga, biror tuyg'uni ifodalashga o'rganadilar. Ifodali o'qishga o'rgatishda o'quvchilar pauza va logik urg'u bilan ham tanishtiriladi.

Ifodali o'qishga tayyorlanish shartli ravishda uch bosqichga bo'linadi:

1. Asarning aniq mazmunini tushunish, unda qatnashgan shaxslarning xatti-harakatini tahlil qilish, asarning g'oyasini belgilash, ya'ni asarning g'oyaviy-mavzuviy asosini, uning obrazlarini badiiy vositalari bilan yaxlit holda tushunish.

2. Matnning qaysi joyida to'xtam (pauza) qilishni, mantiqiy ur-g'uning o'rnini, o'qish tempini belgilab olish.

3. O'qishni mashq qilish, muallif fikrini, uning tasvirlangan voqea-hodisalarga va qatnashuvchi shaxslarga munosabatini ovoz bilan ifodalay olish uchun matnni qayta o'qish.

Asarning mazmuni va g'oyaviy yo'nalishini tahlil qilish ifodali o'qishga o'rgatish bilan bog'lab olib boriladi. Ifodali o'qishga o'rgatishda matn mazmunini tushunish, muallif hikoya qilgan voqealarga o'z munosabatini bildirish asosiy vazifa hisoblanadi. O'quvchilarda ifodali o'qish malakasini shakllantirish uchun asarni o'qituvchining ifodali o'qishi muhim ahamiyatga ega.

Boshlang'ich sinflarda o'qish darslarining deyarli barchasida yangi matnlar ustida ish olib boriladi. Hikoya, ertak, she'r, masal va ilmiy-ommabop maqolalar ustida ishlashda o'ziga xos tartib-tizim bo'lgani holda, har bir mashg'ulotda o'quvchilarning ongli, to'g'ri, ifodali, tez va ichdan o'qish malakalarini shakllantirish uchun muayyan usullar qo'llanib, ularga xos ishlar mashqqa aylanib boradi. Atoqli uslubchi olimlar K.Qosimova, Q.Abdullaeva, M.Yusupov va boshqalarning uslubiy qo'llanmalarida bayon qilingan usul va mashqlar asosida biz o'quvchilarda yaxshi o'qish malakalarini shakllantiruvchi quyidagi usul-mashqlarni qo'llash uchun tavsiya etamiz<sup>1</sup>:

1) ongli o'qish malakasini shakllantiruvchi mustahkamlash usul va mashqlari:

---

<sup>1</sup> Qosimova K., Matjonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. T., TDP. 2008. 77-b.

a) asarni o'qish jarayonida matnda ifodalangan narsalarni namoyish qilib borish;

b) narsaning shakli, modeli, maketi, rasmini ko'rsatib borish;

v) notanish so'zni tanish so'z, sinonim bilan izohlash;

g) ko'chma ma'nodagi so'zni kelib chiqish jihatidan izohlash;

d) ayrim qo'shma so'zlarni qismlarga ajratib izohlash;

e) matn kimlar, nimalar, qanday voqea haqida ekanligini aniqlash;

j) matnda ifodalangan voqeaga munosabatni aniqlash;

z) matnga reja tuzish;

i) matnni rollarga bo'libo'qitish;

k) matnni ijodiy davom ettirish;

2) to'g'ri o'qish malakasini shakllantirish va mustahkamlash usul-mashqlari:

a) darslikdan tashqaridagi usul-mashqlar:

– bo'g'inlarga bo'lib yozilgan ko'p bo'g'inli so'zlarni xattaxta, plakat yoki tarqatma varaqlardan o'qish;

– o'zakdosh so'zlarni og'zaki tuzi shva ularni qayta-qayta takrorlash;

– turli bo'g'in-so'z sxemalarini xattaxta, plakat yoki tarqatma varaqlardan o'qish;

b) darslik matni asosidagi usul-mashqlar:

– matndagi ko'p bo'g'inli so'zlarni terib-tanlab o'qish;

– matndagi o'qilishi qiyin so'zlar ishtirokida bir necha gaplar tuzish;

– matndagi o'qilishi qiyin so'zlar ishtirokida tuzilgan tez aytishlarni qayta-qayta takrorlash;

– matndagi o'qilishi qiyin so'zlarni yodlash;

– talaffuz me'yorlarlariga amal qilib o'qish mashqlari.

3) ifodali o'qish malakasini shakllantirishda qo'llaniladigan usul-mashqlar:

a) o'qituvchining ifodali o'qishga taqlid qilib o'qish;

b) tinish belgilariga rioya qilib o'qish mashqlari;

- v) o'qish sur'atiga (tez, o'rtacha, pasayuvchi) amal qilib o'qish mashqlari;
- g) leksik va mantiqiy urg'ularga rioya qilib o'qish mashqlari;
- d) turli to'xtam (pauzalarga rioya qilib o'qish mashqlari);
- e) ovozni ko'tarib-pasaytirib o'qish mashqlari;
- j) voqea mazmunini aksm ettirib (quvonch, qo'rqinch, sirli, dahshat kabi) o'qish mashqlari;

4) tez o'qish malakasini shakllantirishda qo'llanadigan usul – mashqlar:

a) asardan olingan so'z, so'z birikmasi yoki iborani matndan tezlik bilan topish mashqi;

b) asar mazmuni bo'yicha berilgan savol-topshiriqqa javobni tezlik bilan topish mashqi;

v) aytilgan parcha, nom yoki ibora avval o'qilgan qaysi asardan ekanligini aniqlash mashqi;

g) matnda nechta ism yoki bosh harfli so'z borligini aniqlash mashqi;

d) matnda nechta gap borligini tezlik bilan aniqlash – sanash mashqi;

e) «matnni kim tez o'qiydi?» o'yinini o'tkazish;

5) ichdan o'qish malakasini shakllantirishda qo'llanadigan usul-mashqlar:

a) xattaxtada yozilgan buyruq gaplarni ovoz chiqarmay o'qish va bu topshiriqlarni amalda bajarish;

b) tarqatma varaqadagi savolni ovoz chiqarmay o'qish va unga og'zaki javob berish;

v) o'qituvchio'qiyotganda matnni xatcho'p bilan kuzatib borish;

g) ayrim tez o'qish mashqlarini ichdan o'qishga tatbiq etish.

Psixologik izlanishlar shuni ko'rsatadiki, o'qishni endi o'rganayotgan o'quvchilar o'qilayotgan matnni tushunib borishlari uchun eshitish sezgisiga ham e'tibor qaratganlar. Ikkinchidan, 2-sinf o'quvchilarida o'qish ko'nikmalari yaxshi shakllanmagani uchun ichda o'qish jarayonida ayrim so'zlarni noto'g'ri o'qish natijasida uning ma'nosini tushunmaganlar. Shularni nazarda tutgan holda, 1-2-sinflarda ovozli va shivirlab o'qishdan foydalaniladi.

Maktabda o'qishning bu uch turi almashtirib turiladi. 1 -2-sinflarda ovozli va shivirlab (pichirlab) o'qishdan ichda o'qishga o'tilsa, 3-4-sinflarda ichda o'qishdan ovozli o'qishga o'tiladi. 3-4-sinflarda o'qish turlaridan foydalanishda chegara qo'yilmaydi.

Boshlang'ich sinflarda o'qishning hamma turiga bir xil talab qo'yiladi, ya'ni o'qish to'g'ri bo'lishi, tez, ongli va ifodali bo'lishi zarur.

O'qish kitoblariga kiritilgan asarlar asosida Vatan va o'zbek xalqi haqidagi bilimlar o'quvchilar sinfdan sinfga o'tishi bilan tobora chuqurlashtira boriladi. Vatan, uning sharaflari o'tmishi va qahramonona hozirgi kuni o'qish kitoblarida markaziy o'rinda turadi.

## **II bob. «O'zbekiston – mening Vatanim»**

### **bo'limdagi she'riy asarlarni o'rgatish**

#### **2.1. Boshlang'ich sinf darsligidagi she'riy asarlar ustida ishlash**

O'qish kitobini tuzishda shu narsaga e'tibor beriladiki, tuzilayotgan har bir bo'limda o'quvchilarni g'oyaviy, siyosiy, axloqiy tomondan tarbiyalovchi, mehnatga muhabbatni uyg'otuvchi, tabiatni muhofaza qilishga undovchi asarlar asosiy o'rinda turishi kerak. O'qish kitoblariga kiritilgan tabiat va kishilar mehnati haqidagi yuksak badiiy asarlarni o'qib tahlil qilish bilan bolalar o'z bilimlarini borliq haqidagi yangi ma'lumotlar bilan boyitadilar, ularda tabiatga muhabbat tarbiyalanadi, tabiat boyliklariga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga odatlanadilar.

O'qish kitoblarida turli janrdagi badiiy asarlar va ilmiy ommabop maqolalar beriladi. Jumladan, I-IV sinflarda doston, masal, qo'shiq, ertak, latifa, afsona, hikoya, nasriy saj', she'riy san'atlar o'qitilishi kuzatiladi. Har bir janrdagi g'oyani o'quvchining idrok qilishi uchun turli o'qitish usullaridan foydalanishni talab etadi.

She'rni o'qish darslarida asosiy ish turi ifodali o'qish hisoblanadi. O'quvchi she'rning g'oyaviy mazmunini tushunsagina ifodali o'qiy oladi. Shuning uchun she'rni tahlil qilib, uning mazmunini o'quvchilarga tushuntirish lozim.

She'rni o'qishdan oldin ba'zan unda tasvirlangan, yil fasllari haqida suhbat o'tkazish yoki she'r mazmunini tushunish uchun o'quvchilar bilishi lozim bo'lgan voqealarni o'qituvchi qisqacha so'zlab bersa maqsadga muvofiq bo'ladi. Masalan, Zafar Diyorning «Bahor keldi» she'rini o'qishdan oldinroq tabiatni kuzatish, boqqa, qir-adirlarga ekskursiya o'tkazish maqsadga muvofiq.

Lirik she'rni ham, she'riy hikoyani ham o'quvchilar hayajon bilan yaxlit idrok etishlariga erishish muhimdir. O'qituvchi she'rni shunday ifodali o'qishi

kerakki, bolalar uning asosiy mazmunini anglasinlar, ularga jonli so'z kuchliroq ta'sir etsi<sup>1</sup>.

O'qish oddiy bo'lishi kerak. O'qiyotganda tabiiy zavq-shavq, shodlik xursandlik, qaxr-g'azab hissini qichqirib ovoz bilan soxta ifodalashga yo'l qo'ymaslik zarur. Bolalar she'rni o'qiganda, she'riy satrga rioya qilishlari, she'r ritmini buzmasliklariga erishish lozim. She'r mazmuni ham boshqa janrdagi badiiy asar singari savollar asosida tahlil qilinadi. O'quvchilarga ko'p savol berish tavsiya qilinmaydi. Ular she'rni asosiy mazmunini tushunganliklariga ishonch hosil qilishning o'zi kifoya. Masalan I-sinf o'quvchilari M.Ikromovning «Qish» she'rini o'qiganda, «qaysi fasl haqida o'qidingiz?» savoliga javob berishlari yetarli.

Shuni ham aytish kerakki, bolalar hayoti, ularning o'ziga xos fikrlari, his-tuyg'ulari, qiziqishlarini ifodalovchi, shuningdek vatanimiz tarixi, mustaqilligi, o'zbek xalqi, urf-odatlarini, milliy bayramlari haqidagi she'rlar mazmunini to'liqroq tahlil qilish talab etiladi.

Boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan ko'pgina she'rlarni tahlil qilib, ifodali o'qish mashq qilingach, ifodali yod aytib berish vazifasi topshiriladi (dars paytida).

She'r ohang jihatidan ma'lum bir tartibga solingan, his-tuyg'u ifodasi sifatida vujudga kelgan hayajonli ritmik nutqdir. She'riy nutqni ohang jihatidan ma'lum bir tartibga solish vositalari ritm (bir-biriga monand kichik bo'laklarning izchii va bir me'yorda takrorlanib kelishi) va qofiya (misralarning oxirida keladigan ohangdosh so'zlar) hisoblanadi.

She'rni o'qiganda kichik yoshdagi o'quvchilar tabiat va jamiyat voqea-hodisalarining poetik tasviridan hayajonlanishlari muhim aha-miyatga ega. Boshlang'ich sinflarda she'r tarzida yozilgan hikoyalar, ertaklar, ya'ni she'riy asarlar va lirik she'rlar o'qitiladi.

She'riy hikoya, she'riy ertaklarda sujet, ya'ni voqealar tizimi va uning rivoji xarakterlidir. Lirik she'r „biror hayotiy voqea-hodisa ta'sirida insonda tug'ilgan

---

<sup>1</sup> Qosimova K., Matjonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. T., TDPU. 2008. 126-b.

ruhiy kechinma, fikr va tuyg'ular orqali turmushni aks ettiradi". Lirik she'rning xususiyati „kishining his-tuyg'uga to'la hayajonli nutqini ta'sirliroq ifodalashda qo'l keladi".

Lirik she'rni o'qish va tahlil qilish o'qituvchidan katta mahorat talab qiladi. Holbuki, ko'p hollarda she'rga oddiy matn nuqtai nazaridan yondashiladi. Bunday holda she'riy san'at hissiyot bilan bog'liq ekanligi unutiladi, she'r ma'nosining satrlar, so'zlar zaminida yashirin berilishi anglab yetilmaydi. Buning oqibatida o'quvchilar she'rdagi obrazlilikning mag'zini chaqa olmaydilar. Vaholanki, har qanday asar zaminidagi yashirin ma'noni uqish mehnattalab ishdir. Busiz hatto adabiy ta'limning maqsadi ham amalga oshmaydi.

She'riy ohangni his qilmaslik, matndagi so'zlaming ma'nosini to'la tushunib yetmaslik she'r yodlashni zerikarli mashg'ulotga aylantiradi. Ma'nosi anglanmagan matnni yodlash oson kechmaydi. Buni deyarli barcha sinflarda o'rganiladigan „O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi" misolida ko'rish mumkin. Ma'lumki, madhiya kichik yoshdagi bolalarga mo'ljallab maxsus yaratilmaydi. Binobarin, uning matnidagi „huro'lka", „to abad", „ilm-u fan", „shuhrating", „ajdod-lar", „mardona ruhi sengayor", „o'chmas iymoni", „istiqlol mash'ali", „tinchlik posboni", „haqsevar ona yurt", „mangu bo'lobod", „Jo'sh urgan" kabi ko'pdan-ko'p so'zlar, iboralar o'quvchilarga izohlab tu-shuntirilmasa, ta'limdan ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi.

4-sinfda Q. Hikmatning „Qish to'zg'itar momiq par" she'rini o'rganishda albatta tabiat manzaralarini izohlash talab etiladi. She'rni o'qishdan oldin unda tasvirlangan yil fasllari haqida suhbat o'tkaziladi yoki she'r mazmunini tushunish uchun o'quvchilar bilishi lozim bo'lgan voqealarni o'qituvchi qisqa qilib aytib beradi.

Ma'lumki, qish fasli go'zal ko'rinishi bilan odamda yoqimli tuyg'ular uyg'otadi. Qishda bolalar chana uchish, qorbobo yasash, qorbo'ron o'ynashdan olam-olam zavq oladilar. Qishdagi sof va toza havogina emas, oppoq qorga burkalib turgan daraxtlar, dala-bog'lar kishida ajib bir kayfiyat uyg'otadi.



„Qish to'zg'itar momiq par" (Qudrat Hikmat) she'rini o'rganish jarayonida agar qor yog'magan bo'lsa, ayni manzara tasvirlangan rasmlardan foydalanish ham mumkin. Qish fasli haqida gapirilar ekan, albatta, „kumush" sifati qo'shib aytiladi. Bu shu fasl hukmronligi davridagi manzaraga, qorning oppoq bo'lib tovlanishiga, ko'zlarni qamashtirishiga ishoradir. Ushbu she'rni o'rganish darsi dastlab o'quvchilarning qish fasli haqidagi tushunchalarini aniqlashdan boshlanadi. Qishning o'ziga xos belgilari, qishda o'ynaladigan o'yinlar, qish manzarasi yuzasidan savol-javob o'tkaziladi. O'quvchilarning qish faslida sovuq bo'lishi tufayli ayrim qushlarning o'lkamizni tark etib janubga uchib ketishlari, qishda sovuqqa mos issiq kiyimlarning kiyilishi haqidagi tushunchalari aniqlashtirilib, to'ldiriladi. Shundan so'ng o'qituvchi she'rni ifodali o'qiydi.

Boshlang'ich sinflarda ko'rgazmali ta'limning asosiy shakli she'rni ifodali o'qish hisoblanadi. Lirik she'rni ham o'quvchilar hayajon bilan yaxlit idrok etishlariga erishish muhim. Shuning uchun she'r birinchi marta o'qilganda, hech qanday tushuntirish berilmaydi. She'r o'quvchilarga qanday ta'sir qilganini hisobga olish, bilish zarur. O'qituvchi she'rni shunday ifodali o'qishi kerakki, bolalar uning asosiy mazmunini anglasinlar, ularga jonli so'z kuchliroq ta'sir etsin. So'ngra she'rni mustaqii o'qish topshiriladi. O'qish oddiy bo'lishi kerak. O'qiyotganda tabiiy zavq-shavq, shodlik, xursandlik, qahr-g'azab hissini qichqiriq ovoz bilan soxta ifodalashga yo'l qo'ymaslik zarur. Bolalar she'rni o'qiganda, she'riy satrga rioya qilishlari, bu jarayonda ularning she'r ritmini buzmasliklariga erishish kerak.

O'quvchilar she'r matnini mustaqii o'qiyotganlarida xattaxtaga ma'nosi izohlanadigan so'zlar yozib qo'yiladi. Masalan, „Qish to'zg'itar momiq par" she'ri o'rganilganda „to'zg'itar", „momiq par", „oq namat", „nazdimda", „zarra" so'zlari izohlanadi. Shundan so'ng, she'r o'quvchilarga navbat bilan o'qittiriladi, uning mazmuni yuzasidan savollar asosida suhbat o'tkaziladi. Bunda quyidagieha savollar berilishi mumkin: „She'rda qaysi fasl tasvirlangan ekan?", „Shoir qor yoqqan joylarni nimaga o'xshatadi?", „She'rda qor yog'ishi nimaga qiyoslangan?",

„Shoir qorga qanday murojaat qiladi?“. O'qituvchi berilgan javoblarni todirib, o'quvchilarning qish fasliga doir tushunchalarini boyitadi.

She'r matni ham savollar asosida tahlil qilinadi. Ammo, she'r mazmuni haqida o'quvchilarga ko'p savol berish tavsiya etilmaydi. O'quvchilar she'rning asosiy mazmunini tushunganliklariga ishonch hosil qilishning o'zi kifoya. Shuni ham aytish kerakki, bolalar hayoti, ularning o'ziga xos fikrlari, his-tuyg'ulari, qiziqishlarini ifodalovcfu shuningdek, zamonamiz qahramonlari, o'zbek xalqi, Vatan himoyasi, xalqimizning qahramonona ishlari haqidagi she'rlar mazmunini to'liqroq tahlil qilish talab etiladi. Bunday she'rlarni o'qishga maxsus tayyorlaniladi: she'r mazmuniga asos bo'lgan tarixiy voqea haqida qisqacha so'zlab beriladi yoki suhbat o'tkaziladi.

Boshlang'ich sinflarda o'rganiladigan ko'pgina she'rlarni tahlil qilib, ifodali o'qish mashq qilingach, ifodali yod aytib berish vazifasi topshiriladi.

She'riy nutq yengil yodlab olinadi, bolada estetik his-tuyg'u uyg'otadi. Kichik yoshdagi o'quvchilar saviyasiga mos bolalarbop ravshan til bilan yozilgan sodda ritmli jarangdor she'rlarni bolalar tez va oson yodlab oladiiar.

Kichik yoshdagi o'quvchilarga she'rni qanday yodlash kerakligi o'rgatiladi. Buning uchun o'qituvchi o'quvchilar bilan she'rni teng satrli bir necha qismga bo'ladi. O'quvchilarga har bir satr oxirida pauza (to'xtam) qilish, buning uchun satr oxirida tinish belgisi bo'lishi shart emasligi, ritmik to'xtamda ovozni nuqtadagi kabi pasaytirmaslik lozimligi, bu tugallanmagan fikrni davom ettirishga imkon berishi tushuntiriladi va bo'lingan qismlar navbati bilan yodfatiladi.

Lirik she'rni Epik (voqeiy) she'rlar yoki she'riy usuldagi adabiy ertaklar kishilar hayotida yuz bergan yoki yuz berishi mumkin bo'lgan biror voqeani umumlashtirgan holda ifodalash bilan hikoyalarga o'xshaydi. Voqealarni ifoda etuvchi vositalarning ohang jihatdan tartibga solinishi, kichik bo'laklarning izchii va bir me'yorda takrorlanishi, misralarda ohangdosh so'zlarning qo'llanishi bilan she'riy nutq sanaladi. Shu sababli bunday asarlarni o'rganishda she'r va hikoya ustida ishlash metodikasidan foydalaniladi.

Epik she'rlarni o'qishga o'quvchilar alohida tayyorlanadi, ularda ifoda etilgan voqealar yuz bergan davr haqida tasavvur hosil qilinadi. Bunday she'rlarning mazmuni qay darajada o'zlashtirilganligiga ham alohida e'tibor qaratilishi lozim. Bunda ta'limiy vositalardan bo'lgan rasmlardan foydalanish yaxshi samara beradi. Asar matni ustida ishlashda uni qismlarga bo'lish, har bir qismdagi asosiy fikrni aniqlash, reja tuzish va qayta hikoyalash, qahramonlarga tavsif berish va tarbi-yaviy xulosalar chiqarish kabi tahliliy ishlar amalga oshiriladi.

Epik she'rlarning nasriy asarlar kabi tuguni, kulminatsion nuqtasi, yechimi mayjud bo'ladi. Shu sababli asar mazmuni savol-topshiriqlar orqali tahlil qilinadi. Savol-topshiriqlar o'quvchilar tomonidan ham tuzilishi mumkin.

Bunday she'rlarni tahlil qilish asar voqealarini hamda qahramon holatlarini o'quvchi ko'z oldida yaqqol gavdalantirish imkonini beradi. Bunda ayrim epizodlarga rasmlar ham chizdirish mumkin.

Epik she'rlarning badiiy til vositalari ma'nolarini ochish, ohangdosh so'zlarni aniqlash, band va misralar, bo'g'inlar sonini belgilash, ifodali o'qish, ayrim epizodlarni yod oldirish kabi ish turlari qo'llansa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

She'rni izohli o'qish darsining tuzilishi quyidagicha bo'lishi mumkin:

- 1) she'r mazmunini yaxlit idrok etish uchun uni ifodali o'qib berish (birinchi sintez);
- 2) she'rda tasvirlangan payt, hodisa haqida suhbat (analiz);
- 3) she'rni ifodali o'qishni mashq qilish (ikkinchi sintez);
- 4) she'rni yod aytib berishga tayyorlanish;
- 5) epik (voqeiy) she'rlar ustida ishlash;
- 6) she'rdagi notanish so'zlar ustida ishlash<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> Qosimova K., Matjonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. T., TDPU. 2008. 129-b.

## **2.2. “Vatan – bu” , «Vatan» she'rlarini ifodali o'qishga o'rgatish**

Ma'lumki, har bir mashg'ulotda o'qituvchi shu darsning o'zida amalga oshiriladigan maqsadni belgilab, ana shu maqsad yo'lida muayyan usul va mashqlarni qo'llaydi. Boshlang'ich sinflarda savod o'rgatish davridagi o'qish va yozuv darslari, sinfda va sinfdan tashqari o'qish darslari oldiga har bir mashg'ulot uchun qat'iy bir ta'limiy, tarbiyaviy maqsad qo'yilmasa, dars samaradorligiga erishib bo'lmaydi. Darsning oldiga qo'yilgan maqsad sari harakat bo'lmasa, ham ta'lim jarayonida mazmun bo'lmaydi.

Vatan – har bir inson tug'ilgan va yashaydigan makon, joy. Siz tug'ilib o'sayotgan, bilim olayotgan qishlo', shahar, Respublikamiz – sizning Vataningiz de bo'quvchilarga tushuncha beraman va men bitiruv malakaviy ishimda «Po'lat Mo'minning «Vatanjonim, vatanim» she'rini ifodali o'qish va suhbat metodi asosida o'rgatishni o'z oldimga maqsad qilib qo'ydim.

### **Mavzu: “Vatan – bu” (Po'lat Mo'min)**

Darsning maqsadi:

Ta'limiy maqsad: o'quvchilarning to'g'ri, ongli, ifodali va qiroat bilan o'qish malakalarini shakllantirish.

Tarbiyaviy maqsad:

Vatan tushunchasini kengaytirish, o'z Vataniga muhabbatli bo'lishga, uni qadrlashga o'rgatish, va

a) she'riy asarlarni ifodali o'qishga o'rgatish;

b) she'r matni ustida ishlashga o'rgatish;

s) o'quvchilarni mantiqiy xulosa chiqarishga o'rgatish.

Rivojlantiruvchi maqsad: o'quvchilar to'g'ri, ongli, ifodali o'qish malakalarini rivojlantirish, lug'atiga aniqlik kiritish, lug'at boyligini rivojlantirish, vatan haqidagi tushunchalarini boyitish.

Darsning tipi: Yangi bilim beruvchi.

Dars metodi: Ifodali o'qish va suhbat metodi.

Darsning jihozi: Po'lat Mo'min portreti, shoir haqidagi ma'lumotlar yozilgan ko'rgazma. Vatanimizning o'tmishi va hozirgi kunlari tasvirlangan rasmlar, tarqatma testlar.



Darsning borishi.

O'tilgan mavzu yuzasidan suhbat.

Yangi mavzu ustida ishlash:

O'qituvchi savol beradi va javoblarni umumlashtirib, to'ldiradi:

Berilgan she'rni ifodali o'qing va uning nima haqida ekanini ayting.

- She'r muallifi kim ekan? U haqida nimalarni bilasiz?

O'qituvchi hikoyasi.

Po‘lat Mo‘minning bolalar va o‘smirlarga bag‘ishlangan she‘riy asarlarida bugungi qaynoq hayot, ilmga bo‘lgan muhabbat, vatanparvarlik xususiyatlar aks etgan.

Shoir bolalarga bag‘ishlab yozgan barcha she‘rlarida mavzuni o‘ziga xos jihatdan aks ettirishga harakat qiladi. Shoirlarimiz tomonidan kuylangan ona-Vatan mavzuini o‘ziga xos tarzda ifoda etadi

Bolalarning suyuqli shoiri Po‘lat Mo‘min yoshligidanoq adabiyotga havas qo‘ydi. U Toshkent pedagogika bilim yurtida o‘qib yurgan vaqtida adabiyot to‘garagiga faol qatnashdi. Adabiyotni qunt bilan o‘qidi, o‘rgandi. O‘rta ma‘lumot olgach, hozirgi Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogika universitetining o‘zbek tili va adabiyoti fakultetiga o‘qishga kirib, uni muvaffaqiyatli tamomlagach, aspiranturada o‘qidi, maktablarda o‘qituvchilik qildi. So‘ngra O‘zbekiston davlat nashriyotida ishladi.

P.Mo‘min qaerda ishlamasin, doimo adabiyotga muhabbat bilan qaradi, uni qunt bilan mutolaa qildi, o‘rgandi. Kichik-kichik she‘rlar yoza boshladi. 1944 yilda «Bahorga sayohat» nomli birinchi she‘ri bosilib chiqdi. Birinchi she‘rlar to‘plami esa 1949 yilda «Sayrang, qushlar» nomi bilan nashr etildi. Kitob adabiy jamoatchilik tomonidan iliq qutib olindi. To‘plamdan munosib o‘rin olgan «Obod o‘lkam», «Haykal», «Alla va Jalla» (ertak) singari asarlari mazmundorligi, qiziqarliligi bilan kitobxonlarning e‘tiborini o‘ziga jalb etdi 1.

Bolalarning suyuqli shoiri Po‘lat Mo‘min yoshligidanoq adabiyotga havas qo‘ydi. Uning «Vatanjonim, vatanim», «Obod o‘lkam», «Haykal», «Alla va Jalla» (ertak) singari asarlari mazmundorligi, qiziqarliligi bilan kitobxonlarning e‘tiborini o‘ziga jalb etdi.

Bolalarga atab ijod etish, bu sohada muvaffaqiyat qozonish uchun birgina qobiliyat va istakning o‘zigina yetmaydi. Belinskiy ta‘rifi bilan aytganda, bolalar yozuvchisi bo‘lib tug‘ilish kerak. Bu bolalar yozuvchisi mohir pedagoglarday bola qalbining bilimdoni bo‘lsin, nozik ta‘b egasi, go‘dak tabiati va psixologiyasining bilimdoni, mehribon va bolajon , kamtarin va samimiy, bolalarcha soddadil ham

dono bo'lsin, degan mazmuni tag'ozo etadi, albatta. Biz Po'lat Mo'min ijodida ana shunday olijanob xususiyatlar mujassamligini his etamiz.

Po'lat Mo'minning ijodi rangba-rang mavzuda, shirali, ta'sirli yozilganligi bilan ajralib turadi. Aksariyat she'rlarining qahramonlari ko'ngillari osmon kabi musaffo, shaloladek quvnoq, orzulari buloqlar suvidek toza, shamoldek tinim bilmaydigan bolakaylar ekanligining guvohi bo'lasiz.

Shoir bolalarga bag'ishlab yozgan barcha she'rlarida mavzuni o'ziga xos jihatdan aks ettirishga harakat qiladi.

Po'lat Mo'minning "Vatan – bu" she'ri bola tilidan yozilgan bo'lib, vatanni insonning yuragiga tenglashtiradi, insonlarning bir-biriga kerakligini, Vatan bu tug'ilgan, birinchi qadam yetgan joyi ekanligini ifodalaydi:

"Vatan – bu" she'rida yuksak vatanparlik g'oyasini ilgari suradi. Ayni chog'da, o'z xalqining baxtini, go'zal Vatanning istiqbolini kuylagan shoir hayotga bo'lgan muhabbatini Vatanga bo'lgan muhabbati tuyg'usi bilan yonma-yon qo'yadi, bolalarga ikkovini bir butun holda tushuntiradi.

Uning bolalar uchun yaratgan she'rlarida vatanparvarlik va jasurlik, yoshlarning kelajagini ifodalab, ularni erk va baxt bergan vatanga munosib kishilar bo'lishga chaqiradi:

Shoir o'lkamizning kelgusida yanada gullab-yashnashini, jahonda tengi yo'q diyorga aylanishini orzu qiladi va yoshlarni ana shunday Vatanga munosib farzand bo'lishga, ilm-fanni egallashga undaydi. U yoshlarning ilm-fanni o'rganib kamol topishiga zo'r ishonch bilan qaraydi.

Bolalarning ona-Vatan oldidagi muqaddas burchi, fidoyiligi, e'tiqodi va sadoqati shoirning "Vatan – bu" she'rida yanada chuqur ifodasini topgan. She'rda muqaddas Vatan, Vatan degani bu yurak degan, Vatanni insonning yuragi ekanligi ifodalangan.

Vatan — bu...

Po'lat Mo'min

Vatan deganim bu —

Yurak deganim,

Yurakka Vatanim

Kerak deganim.

Bu sheʼrning har bir misrasi oʻynoqi, tez yodda qoladigan asarlardan biridir. Buning uchun yuqoridagi parchaga, ayniqsa, “Vatan deganim bu –

Yurak deganim, degan misralarga qayta nigoz tashlash kifoya.

Vatan deganim bu —

Yurak deganim,

Birov-biroviga

Kerak deganim.

Poʻlat Moʻmin Vatanning mohiyati va ulugʻvorligini, bu zaminda, bu vatanda hamma bir-biriga kerak ekanligini kitobxon koʻz oʻngida gavdalantira olgan.

Aslida Vatan bu —

Tugʻilgan joyim,

Birinchi qadamim

Yetgan qoʻrgʻonim<sup>1</sup>.

Shoir sheʼr misralarining imkon qadar qisqa boʻlishiga alohida eʼtibor qaratadi. Bola qisqa sheʼrni nafasi qaytmay oʻqiydi, oson yod oladi. Shoir sheʼrlaridagi ravonlik asl tuygʻularning yosh yuraklarga tezroq yetib borishiga xizmat qiladi.

Boshlangich sinf oʻquvchilari oʻqish darslarida shoirning shunday sheʼrlaridan foydalanishsa, darsning samarasi kutilgandan ziyoda boʻlishi muqarrardir.

---

<sup>1</sup> T.Gʻafforova, E. SHodmonov, G.Eshurdiyeva. “Oʻqish kitiobi”. Umumiyoʻrta taʼlim . maktablarining 1-sinfi uchun darslik. «SHARQ» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent – 2017.5-b.



“Vatan – bu” she’rda dastlab nimalar haqida gapiriladi?”, „She’rdagi Vatan haqida yuritilgan fikrlarni ketma-ket aytib bering”, shoir

“Aslida Vatan bu –

Tug’ilgan joyim,

Bininchi qadamim

Yetgan qo’rg’onim”

ifodalashda qanday tasvir usullaridan foydalangan?” kabi savol-topshiriqlardan foydalanish o’quvchilar faolligini oshiradi.

Demak, shoir she’ridan kelib chiqadigan muhim xulosa shundaki, ona Vatanni sevish vatanparvarlik belgisi. Ona Vatan bilan g’ypyplanish milliy ma’naviyatga ega bo’lishdir. Bu kabi xulosalar kichkintoylar ma’naviyatiga tezroq yetib boradi.

Po’lat Mo‘minning butun e’tibori, ijodining mohiyati bolalarga hayot yo‘lini ko‘rsatib berishga intilishdan iborat.

Xulosa qilib aytganda, akademik shoir Po’lat Mo‘min o‘zbek bolalar adabiyotini yuksaltirishga barakali hissa qo‘shdi. U yoshlar uchun yozgan asarlarida bolalarning quvnoq hayotini yurakdan berilib kuyladi. Uning asarlari bolalarni yaxshi o‘qishga, ilm-fan cho‘qqilarini egallashga, zamonamizning ilg‘or kishilari bo‘lib yetishishga chaqiradi.

### **«Vatan» she’rini ifodali o’qishga o’rgatish**

Bolalarga atab ijod etish, bu sohada muvaffaqiyat qozonish uchun birgina qobiliyat va istakning o‘zigina yetmaydi. Biz Miraziz A’zam ijodida olijanob xususiyatlar mujassamligini his etamiz.

Miraziz A’zamning bolalar uchun yozgan she’rlarining deyarli hammasi hajm jihatdan ixcham, bolalarbop, g‘oyaviy-badiiy jihatdan mukammaldir. Shoir she’rlari bolalarga tez va osonlik bilan singadi. Sodda va ixcham misralar, o‘ynoqi, jo‘shqin qofiyalar, obrazli ifodalar, badiiy tasvirlar, xarakterli, bolalarbop parchalar

she'rlarning qimmatini oshiradi, kichkintoylarning tez yodlab olishlariga imkoniyat yaratadi.

MIRAZIZ A'ZAM ham bolalar, ham kattalar shoiri, ayni chog'da o'tkir publitsist, yetuk tarjimon hamdir. U 1936 yili Toshkentda tavallud topgan. Toshkent Davlat dorilfununini tugatgach, Toshkent telestudiyasida, «G'uncha» bolalar oynomasida, so'ngra «Yosh gvardiya», G'afur G'ulom nashriyotlarida muharrir bo'lib ishlagan. Ko'p yillar O'zbekiston Yozuvchilari uyushmasida maslahatchi, sarkotib yordamchisi bo'lib ishlagan. Uning ijodi talabalik yillaridayoq boshlangan. Uning birinchi she'ri 1960 yilda «G'alati tush» nomi bilan chop bo'lgan. Keyinchalik u 1972 yilda alohida kitob holida bolalarga sovg'a qilingan.

Uning birinchi she'riy to'plami «Metallurg» (1964) nomi bilan chop bo'lgan. Shundan so'ng bolalar uchun «Aqli bolalar» (1969, doston), «Senga nima bo'ldi» (1970), «Yer aylanadi» (1973), «Yerga dovruc solamiz» (1970), «Bir cho'ntak yong'oq» (1990, saylanma) kabi bir qator ajoyib she'riy to'plamlari bosilib chiqdi. Ularda bolalarning qalbi va tuyg'ulari orqali olamni, odamni bilishga, yaxshilik bilan yomonlikni farqlashga, halol va pokiza mehnatni ulug'lashga intiladi.

Adib kattalar uchun ham bir qator salmoqli she'riy guldastalar yaratgan. Jumladan, «Sevaman» (1977), «Tuyg'ular» (1980), «Sabot» (1983) kabi to'plamlaridagi ko'pchilik she'rlar o'zining hayotiy va jozibaliligi bilan o'quvchi qalbini zabt etadi.

Shoir ana shu she'riy to'plamlaridagi eng yaxshi she'rlarini va yangi yozilgan asarlari sarasini o'zining «Haqiqatning ko'zlari» (1988) saylanmasiga jamlab, talabchan o'quvchisiga havola etdi. Miraziz A'zam haroratli, shijoatli publitsist hamdir. Uning madaniy-adabiy merosni ko'z qorachig'idek asrashga da'vat etuvchi bir qator tarixiy-adabiy maqolalari shular jumlasidandir. Adib mohir tarjimon, adabiyot va madaniyatning hormas targibotchisi ham. Uning turk, rus, nemis adiblaridan qilgan tarjimalari, ayniqsa, islom madaniyatiga oid tarjimalari

qo‘pchilik mutaxassis va oddiy o‘quvchi ixlosini orttirdi. Miraziz A‘zam ijodi gullagan, sermahsul, serfayz bo‘lishiga ishonsa bo‘ladi.

Miraziz A‘zam ko‘p she‘rlarida vatanparvarlik, vatanga muhabbat g‘oyalarini ilgari suradi. Bolalarni vatanning munosib farzandlari bo‘lib yetishishga undaydi.

## **Vatan**

### **Miraziz A‘zam**

Vatan — bizning uyimiz,  
Vatan — bizning ko‘chamiz,  
Soylardagi suvimiz  
Mazza qilib ichamiz.

She‘rda bolalarning Vatanni o‘z uyiga, ko‘chasiga, soydagi suvlarga o‘xshatishi misralarda tabiiy va samimiy holda namoyon etilgan. Shoir turli hayotiy, haqqoniy tafsilotlarda, boy ifoda vositalarida bolalikka xos xususiyatlarni g‘oyat zavqli madh etadi.

Vatan — bizning tog‘imiz,  
Olma-anor bog‘imiz,  
Bug‘doy, arpa dalamiz,  
O‘ynab mazza qilamiz<sup>1</sup>.

Shoir Vatanni o‘z tog‘larga, bog‘larga, bug‘doy, arpa dalalarga, ularda mazza qilib o‘ynashini suvlarga boyligini tasvirlagan.

---

<sup>1</sup> T.G‘afforova, E. SHodmonov, G.Eshurdiyeva. “O‘qish kitiobi”. Umumiyo‘rta ta‘lim . maktablarining 1-sinfi uchun darslik. «SHARQ» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent – 2017.16-b.

Ozod, erkin ona-Vatanimizni jondan sevgan, e'zozlagan Miraziz A'zam «Vatan» she'rida mamlakatimizning tengi yo'q oltin konlarini, tandir to'la nonlarini, shu Vatanning farzandilari maktablarda o'qishini, o'rganishini g'oyaviy-badiiy yuksak misralarda beradi va shoir boladagi ona-Vatan bilan faxrlanish sabablarini ham zo'r ehtiros bilan chizadi:

Oltin to'la konimiz,  
Tandir to'la nonimiz.  
Vatan — maktab-onamiz,  
O'qishni o'rganamiz.

Shoir she'rida bolalarga xos xususiyatlardan ustalik bilan foydalanib, ularda Vatandan faxrlanish tuyg'ularini ko'rsatishga harakat qilgan.

Miraziz A'zam bolalar uchun yozgan she'rlarida turli tasviriy vositalar, ajoyib o'xshatish, sifatlash va istioralarni mohirlik bilan qo'llaydiki, bular asarning g'oyaviy-badiiy mukammalligini ta'minlabgina qolmay, kitobxonlarning so'z boyligini, nutqini boyitadi, ularda estetik zavq-shavq uyg'otadi.

Xulosa qilib aytganda Miraziz A'zam yuqoridagi kabi asarlari bilan o'zbek bolalar adabiyotining shakllanishi va yuksalishiga katta hissa qo'shmoqda. U o'zining bunday asarlari bilan bolalar adabiyotining sevimli kuychisiga aylanib qoldi.

Miraziz A'zam bolalarning xatti-harakatlarini, orzu-intilishlarini yaxshi biladi. She'r bolaning kelajakda orzu-umidiga erishishga bo'lgan zo'r ishonch bilan tugaydi. Bu asar bolalarni ilm va hunarga muhabbat, tinmay olg'a intilishga chag'iriy ruhida tarbiyalashi jihatidan katta ahamiyatga ega.

### **2.3. “Qish» she'rini” Adashib qolgan satrlar” metodi asosida o’rgatish**

Darsning turi: yangi bilim beruvchi, hikoya o'qish darsi.

Dars shakli: tushuntirish, suhbat.

Darsda foydalaniladigan ta'limiy vositalar: T.Adashboyuv sur'ati, Qish manzarasining rasmi.

Dars metodi: “Adashib qolgan satrlar”

Darsning maqsadi:

1. O`quvchilarga qish fasli haqida ma'lumot berish.
2. O`quvchilarning o'qish malakalarini yanada rivojlantirish.
3. O`quvchilar lug'atini boyitish, savol-topshiriqlar ustida ishlash.

Darsning borishi.

Bolalar shoiri T.Adashboyev haqida o`quvchilarga qiqacha ma'lumot berish.

Hozirgi zamon o`zbek bolalar adabiyotining katta shoiri, yetuk tarjimon Tursunboy Adashboyev o`qishga ishtiyoqmand, qiziquvchan, tirishqoq bo`lib o`sdi.

Bo`lajak shoir oltinchi sinfda o`qiyotgan chog`ida Alisher Navoiyning «Farhod va Shirin» dostonini G`.G`ulom tabdilida o`qiydi, so`ng A.Qahorning hikoyalar to`plami bilan tanishadi va ustozlarga maktub bitadi. Ikki ulug` yozuvchi ham uning xatlariga javob yozgani qishloqda shov-shuvga sabab bo`ladi. Tursunboyning ko`ngliga o`sha vaqtdayoq so`z mehri tushgandi.

Tursunboy Adashboyev «Qish» she'rida qish manzarasini bolalarcha ochib bergan. So`zlar juda sodda, bola tilida yozilgan. Qish faslini go`yoki mehmonga o`xshatgan.

## Qish

Tursunboy Adashboyev



Bolalar ichki dunyosini yaxshi biladigan Tursunboy Adashboyev kichiklarga atalgan asarlar aql o'rgatishdan, nasihatdan xoli bo'lishi kerak deb hisoblaydi. «Bolalarga qisqa vaznli, kutilmagan qofiyalarga asoslangan, jinday yumor va falsafa omuxta qilingan she'rlar yozish kerak. Shoirning "Qish. she'rni nafasi qaytmay o'qiydi, oson yod oladi. Shoir she'rlaridagi ravonlik asl tuyg'ularning yosh yuraklarga tezroq yetib borishiga xizmat qiladi. Shoir bolalar tabiatidagi yumorga moyillikni yaxshi tuyadi. Shu bois uning deyarli barcha bitiklarida komizm ustuvorlik qiladi. Chunki bola olamga kulib, charaqlab qaraydi, dunyoni yorqin ranglarda, quvonch og'ushida ko'radi.

Shudgor uzra uvullar

Ayoz bobo bo'roni.

Mehmon bo'ldi qish fasli

Oq choyshabga o'ranib.

Aslida "Shudgor uzra uvular Ayoz bobo bo'roni» shoir bolalar tafakkur tarziga binoan qish faslining sovuq kunlarini Ayoz boboning bo`roniga o`xshatadi va bunga o'quvchini ishontiradi. T.Adashboyevning she'rlari kichik kitobxonni fikrlash, munosabat bildirish va xulosa chiqarishga undaydi.

Bundan buyon ko'cha-ko'yda

Piyma, etik g'archillar.

Tinim bermas chanalarga

Shokir, Ra'no, Barchinlar<sup>1</sup>.

Tursunboy Adashboyevning she'rlaridagi o'ziga xoslik shundaki she'rlarida tasvir chin hayotiy detallarga tayangan. Shu bois o'quvchining xotirasiga mahkam o'mashib qoladi.

Boshlangich sinf o'quvchilari «O'qish» darslarida shoirning shunday she'rlaridan foydalanishsa, darsning samarasi kutilgandan ziyoda bo'lishi, sinfdagi o'quvchilarning har biri alohida va barchasi birga ishlab «interaktiv» usulni yuzaga keltirishi muqarrardir.

She'rdagi satrlarning ayrimlari betartib beriladi. O'quvchilar ularni o'z o'milariga qo'yishlari lozim bo'ladi.

Масалан:

Oq choyshabga o'ranib.

Piyma, etik g'archillar.

Shudgor uzra uvullar

Shokir, Ra'no, Barchinlar

Mehmon bo'ldi qish fasli

Bundan buyon ko'cha-ko'yda

Ayoz bobo bo'roni.

Tinim bermas chanalarga

Xulosa qilib aytganda, o'zbek bolalar adabiyotining shakllanishi va yuksalishiga katta hissa qo'shgan bolalar yozuvchi va shoirlari o'zilarining bunday asarlari bilan bolalar adabiyotining sevimli yozuvchi va shoirlariga aylanib qoldi.

---

<sup>1</sup> T.G'afforova, E. SHodmonov, G.Eshturdiyeva. "O'qish kitiobi". Umumiyo'rta ta'lim . maktablarining 1-sinfi uchun darslik. «SHARQ» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent – 2017.11-b.

### **III bob. Boshlang'ich sinflarda badiiy asar ustida ishlash**

Badiiy matnda boshqa uslub matnlarida bo'lganidek qat'iy mantiq soddalik, tushunarlik, normativlik kabi qonuniyatlarga to'la-to'kis amal qilinavermaydi. Unga badiiy tasvir vositalaridan unumli foydalaniladi. Ta'sirchanlik birinchi planga ko'tariladi. Ohangdor, jozibador birliklar ko'p qo'llaniladi. Tasvirlanayotgan voqelikda uyg'un bir musiqa ichki bir garmoniya sezilib turadi. Insonni ruhan to'lqinlashtirish, yig'latish, kuldirish, hayot olamiga yetaklash, o'yga cho'mirish estetik tafakkurini shakllantirish voqea-hodisalarga teran boshqacha nazar bilan boqishga o'rgatish kabi ko'plab imkoniyatlarni o'zida mujassam qilgan bo'ladi.

Badiiy matn badiiy asar mazmunini ifodalagan funksional jihatdan tugallangan tilning tasvir imkoniyatlari asosida shakllangan, o'zida turli uslub ko'rinishlarini muallifning badiiy niyatiga ko'ra erkin jamlay oladigan tinglovchi yoki o'quvchiga estetik zavq berish, ta'sir etish xususiyatiga ega bo'lgan g'oyat murakkab butunlik hisoblanadi.

Badiiy matnda ohangdor, jozibador birliklar ko'p qo'llaniladi. Tasvirlanayotgan voqelikda uyg'un bir musiqa ichki bir garmoniya sezilib turadi. Insonni ruhan to'lqinlashtirish, yig'latish, kuldirish, hayot olamiga yetaklash, o'yga cho'mirish estetik tafakkurini shakllantirish voqea-hodisalarga teran boshqacha nazar bilan boqishga o'rgatish kabi ko'plab imkoniyatlarni o'zida mujassam qilgan bo'ladi.

Badiiy matn badiiy asar mazmunini ifodalagan funksional jihatdan tugallangan tilning tasvir imkoniyatlari asosida shakllangan, o'zida turli uslub ko'rinishlarini muallifning badiiy niyatiga ko'ra erkin jamlay oladigan tinglovchi yoki o'quvchiga estetik zavq berish, ta'sir etish xususiyatiga ega bo'lgan g'oyat murakkab butunlik hisoblanadi.

Boshlang'ich sinflarda asar tahlilida adabiy janr turlari - ertak, hikoya, masal, she'r, doston, maqol, topishmoq bilan birga badiiy til vositalari - sifatlash, o'xshatish, jonlantirish, mubolag'a bilan ham amaliy ravishda tanishtiriladi.



Badiiy asar tilini tahlil qilish orqali o'quvchilarda o'z ona tiliga muhabbat hissi, badiiy asarni ongli o'qish ko'nikmasi o'stiriladi, asar 84 g'oyasini chuqur idrok etishga zamin hozirlanadi, o'quvchilar nutqi rivojlantiriladi.

O'zbek maktablarida taniqli rus metodist-olimlari T. G. Ramzayeva, M.S.Vasileva, V. G. Goreskiy, K.T.Golenkina, L. A. Gorbushina, M. I.Omorokova, E.A.Nikitina, N.S.Rojdestvenskiy, o'zbek olim-laridan A.Zunnunov, K.Qosimova, Q.Abdullayeva, S.Matchonov, M.Yusupov, M.Umarova, X. G'ulomova kabilar ishlab chiqqan takomillashgan sinfda o'qish metodikasidan ijodiy foydalanilmoqda<sup>1</sup>.

Badiiy asar tilini tahlil qilish orqali o'quvchilarda o'z ona tiliga muhabbat hissi, badiiy asarni ongli o'qish ko'nikmasi o'stiriladi, asar g'oyasini chuqur idrok etishga zamin hozirlanadi, o'quvchilar nutqi rivojlantiriladi.

Boshlang'ich sinflarda to'g'ri, tez, ongli va ifodali o'qishga o'rgatish vazifasi o'quvchilarda asarni tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirish bilan birga amalga oshiriladi. O'qish malakalarini shakllantirish bilan matn ustida ishlashning o'zaro bog'liqligi asarni tahlil qilishga qanday yondashishni belgilab beradi.

Badiiy asar ustida ishlashning 2-bosqichi asar tahlilidir. Asarni tahlil qilishning asosiy yo'nalishi matnning aniq mazmuni (voqealar va uning rivojlanishi)ni, kompozitsiyasini, ishtirok etuvchi shaxslarning axloqi va xarakterli xususiyatlarini, asarning g'oyasini aniqlash hisoblanadi.

Asarni tahlil qilishning metodik shartlaridan biri asar mazmunini uning tasviriy-ifodaviy vositalari bilan bog'liq holda qarashdir. Yana bir asosiy qoida asar ustida ishlash jarayonida ta'lim-tarbiyaviy vazifalarni umumiy ravishda amalga oshirish hisoblanadi. Bu qoidalar asar ustida ishlashning

---

<sup>1</sup> Qosimova K., Matjonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. T., TDPU. 2008. 81-b.

asosiy yo'nalishini belgilaydi, shuningdek, matnni tahlil qilish jarayonida o'quvchilar bajaradigan topshiriqlarni va muhokama qilish uchun ularga beriladigan savollarning xarakterini aniqlab olishga yordam beradi.

Badiiy asarda barcha qismlar (g'oyaviy asos, kompozitsiya, sujet, tasviriy vositalar) o'zaro bog'liq bo'ladi. Sujet rivoji asosida asar qahramonlarining yangi-yangi qirralari ochila boradi. Bu xususiyatlar asar ustida ishlashda uni yaxlit o'qish va idrok etishni talab etadi.

O'quvchilarni badiiy asar ustida ishlashga o'rgatish ularda adabiy-estetik tahlil malakasini shakllantirish va o'stirish orqali ta'lim-tarbiya berishni nazarda tutadi. Asar matnini tahlil qilish muallif fikrini, hissi-yoti va xulosalarini tushunishga yordam beradi, asarda ifoda etilgan voqealarga munosabat uyg'otadi. Asar tahlili o'qituvchidan o'quvchilar faoliyatini ma'lum maqsadiga yo'naltirishni taqozo qiladi.

„Maktabda badiiy asarni tahlil qilishdan asosiy maqsad asarda ifodalangan hayotiy voqeani yoritish orqali o'quvchilarni badiiy adabiyot olamiga olib kirish, tasvirlanayotgan voqealarga nisbatan muallifning munosabati va niyatlarini payqab olishga imkoniyat yaratishdan ibo-ratdir. O'quvchilarning yozuvchi oldinga surgan g'oya, muammolarni to'liq tushunishlariga erishmay turib, adabiyotning yoshlarni tarbi-yalashdagi vazifasini amalga oshirib bo'lmaydi" <sup>1</sup>.

### **3.1. Hikoya ustida ishlash metodikasi**

Boshlang'ich sinf o'qish darslarida asarni o'qishga kirishishdan oldin o'quvchilarni badiiy asarni o'qishga tayyorlash lozim bo'ladi. Chunki o'quvchilar asar mazmunini to'g'ri idrok etishlari uchun hayot haqida ma'lum tasavvurga ega bo'lishlari zarur.

---

<sup>1</sup> ZunnunovA. va boshq. Adabiyot o'qitish metodikasi. - T.: „O'qituvchi" 1992. 160-bet.

„O'qish kitobi»idagi hikoyalarni tanlashda, avvalo, didaktikaning umumiy mezonlari: g'oyaviylik; bayonning ilmiyligi, tushunarligi; ko'rsatmalilik; onglilik; o'quv materialining hayot bilan bevosita aloqadorligi; bolalar yoshi va dunyoqarashi, o'ziga xos ruhiy xususiyatlarining hisobga olinishiga asoslanadi.

Boshlang'ich sinflarda turli mavzudagi hikoyalar beriladi. Boshlang'ich sinflarda berilgan har qanday hikoyada, avvalo bolaning yosh xususiyati hisobga olinadi.

Hikoya kichik hajmli badiiy asar bo'lib, unda kishi hayotidagi ma'lum bir voqea, hayotning muhim tomonlari umumlashtirib tasvirlanadi.

„Hikoya ko'pincha kishi hayotida bo'lgan bir epizodni tasvir etadi. Uning mazmuni ertakdagidan ortiqroq hayotiydir"<sup>14</sup>.

Hikoya mazmunan boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mos janr hisoblanadi. Kichik yoshdagi o'quvchilarni qahramonlarning xatti-harakati, tashqi ko'rinishi, portret tasviri, voqea-hodisalar haqidagi hikoyalar ko'proq qiziqtiradi. Shuning uchun bolalarni hikoya bilan tanishtirish uning sujetini tushuntirishga bog'lab olib boriladi.

Boshlang'ich sinflarda hikoyani o'qishga bag'ishlangan izohli o'qish darslarida o'qilgan hikoya mazmunini ochish, lug'at ustida ishlash, o'qilgan matnni qayta hikoyalash kabilar asosiy ish turlaridan hisoblanadi. Hikoya mazmuni odatda savollar asosida tahlil qilinadi. So'roqlardan ikki maqsadda: hikoya mazmunini tahlil qilish hamda dalillar, mulohazalar, xulosalarni taqqoslash, voqea-hodisalar, xatti-harakat o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlash va umumlashtirish uchun foydalaniladi<sup>1</sup>.

Hikoyani o'qish darsida o'quvchilar tushunmaydigan so'z va iboralar ma'nosini tushuntirish ham muhim, aks holda ular hikoya mazmunini tushuna olmaydilar.

---

<sup>14</sup> Qosimova K., Matjonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. T., TDPU. 2008.112-b.

Hikoyani o'qishda uning mazmunini tahlil qilish va shu asosda o'quvchilar nutqini o'stirish markaziy o'rin egallaydi. Hikoya o'qib bo'lingach, o'quvchilar o'ylash'i, o'z mulohazalarini aytishi uchun tayyorlanishga vaqt berish kerak. O'qilgan asar yuzasidan beriladigan dastlabki savollardan maqsad hikoya bolalarga yoqqan-yoqmaganligi, undagi qaysi qahramonning xarakteri bolaga ta'sir etganini bilishdan iborat. Shundan keyingina hikoya sujeti, voqeaning yo'nalishini ochishga, personajlar xarakterini tushunishga, nihoyat, asarning asosiy g'oyasini bilib olishga yordam beradigan savollardan foydalaniladi.

Badiiy asarni tahlil qilishda sujetni to'liq tushuntirishga berilib ketib, qahramonlarga tavsif berish, asar qurilishi va tilini tahlil qilish kabi ish turlari e'tibordan chetda qolmasligi lozim.

Ertak janriga xos matniar jozibadorligi bilan bolani o'ziga tortadi. Lekin hikoya janri ham hayotiyliigi bilan o'ziga xos. Hikoyada voqealar tez rivojlanib boradi. Unda inson hayoti, u bilan bog'liq hayotiy lavhalar bayon etiladi. O'quvchilar qahramonlarning xarakteri, ulardagi xususiyatlar bilan qiziqadilar. Masalan, 3-sinf „O'qish kitobi"dagi „*Dadam qurgan dengiz*“ (Hakim Nazir), „*Olma*“ (Malik Murodov), „*Ilmli ming yashar*“ (Nurmat Maqsudiy), „*Xazonchinak*“ (O'. Hoshimov), „*Mehnatkash qiz*“ (Oybek) va boshqa qiziqarli hikoyalar berilgan. Ular mavzu jihatdan xilma-xil bo'lib, qahramonlarining xarakter-xususiyattari bilan ham farq qiladi.

Hikoya tahlili adabiy tur sifatida o'ziga xos xususiyatlari va vazi-fasidan kelib chiqib ish ko'rishni taqozo etadi. Undagi har bir so'z, ibora, gap yozuvchining fikrini ifodalashga xizmat qiladi.

Hikoya matni uning mazmunini yoki badiiy xususiyatlarini o'rganishdagina emas, tahlilning ifodali, adabiy, shartli yoki ijodiy o'qish, muammoli usullardan foydalanish uchun ham manba bo'lishi lozim.

Boshlang'ich sinflarda hikoya sujeti, kompozitsiyasi, qahramonlarini o'rganish bo'yicha turli tahlillar matn ustida ishlash asosida olib boriladi. Hikoyani o'rganishda savollarni, odatda, o'qituvchi beradi, ammo asar mazmuni,

qatnashuvchi shaxslarning xulq-atvorini ochish yuzasidan o'quvchilarga ham savol tuzdirish juda foydali. Bu usul bolalarga juda yoqadi va ishni jonlantiradi, asar mazmunini yaxshi tushunish, o'z fikrini izchii bayon qilish malakasini egallash, mazmun va voqealar orasidagi bog'lanishni to'liq esda saqlab qolishda o'quvchilarga yordam beradi.

**Hikoyani izohli o'qish darsini quyidagicha reja asosida olib borish mumkin:**

1. Hikoyani o'qishga tayyorlash (hikoyadagi kabi odamlar hayoti va davrga xarakteristika berish va boshqa.).

2. Hikoyani o'qish (bunda to'liq va ma'no jihatdan tugal qismni o'qituvchi yoki oldindan tayyorlangan o'quvchi ifodali o'qishi mumkin).

3. Lug'at ustida ishlash.

4. Idrok etishni tekshirish (qatnashuvchilarning xatti-harakatlari, shaxslar va voqealar o'rtasidagi munosabatlar, badiiy vositalar yuzasidan qisqacha suhbat).

5. Hikoyani qayta o'qish (qismlarga bo'lib, rollarga bo'lib o'quvchilarga o'qitish).

6. Hikoyaning har bir bo'limi (qismi) yuzasidan suhbat uyushtirish, hikoya rejasini tuzish.

7. Reja asosida qayta hikoyalash.

8. Hikoya asosida ijodiy va mustaqil ishlar.

9. Hikoyani ifodali o'qishga yoki sahnalashtirishga tayyorlanish (sinfda yoki uyda).

10. Hikoyani ifodali o'qish va ifodali qayta hikoyalash.

### **3.2.«Buyuklar vatani» hikoyasini suhbat metodi asosida o'rgatish**

Vatan – har bir inson tug'ilgan va yashaydigan makon, joy. Siz tug'ilib o'sayotgan, bilim olayotgan qishloq, shahar, Respublikamiz – sizning Vataningiz

deb o'quvchilarga tushuncha beraman va "**Buyuklar vatani**" hikoyasini suhbat metodi asosida o'rgatishni o'z oldimga maqsad qilib qo'ydim.

**Maqsad:** Yosh avlod qalbida vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish, erk, mustaqillik haqidagi bilimlarni kengaytirish, Vatan oldidagi farzandlik burchi va mas'uliyatini teran anglash, Vatanga muhabbat tuyg'usini shakllantirish, Vatan tushunchasini kengaytirish, o'z Vataniga muhabbatli bo'lishga, uni qadrlashga o'rgatish.

Darsning turi: yangi bilim beruvchi, hikoya o'qish darsi.

Dars shakli: tushuntirish, suhbat.

Darsda foydalaniladigan ta'limiy vositalar: Amir Temur, Alisher Navoiy rasmi, kompyuter, proektor.

Dars metodi: izohli o'qish, tarmoqlash, muammoli o'qitish metodi.

### **Darsning maqsadi:**

**1-ta'limiy maqsad:** O'zbekistning o'tmishi va buguni haqida ma'lumot berish. Hikoya matnini to'g'ri, o'quv sur'atiga mos, ongli va ifodali o'qish. O'quvchilarni badiiy adabiyotga qiziqtirish, asarlarni o'rgatish jarayonida olam va inson tabiati, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar, shuningdek, kitobxonlik madaniyatini shakllantirish orqali o'quvchilarning ma'naviyatini, dunyoqarashini kengaytirish.

**2-tarbiyaviy maqsad:** milliy hamda jahon adabiyotining nodir namunalarini o'qitish orqali o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy dunyosi, adabiy-estetik didini shakllantirish hamda ularda mustaqil fikrlash, obrazli tafakkurga oid bilim, ko'nikma, malakalarni hosil qilish va rivojlantirish.

**3-rivojlantiruvch maqsad:** o'quvchilarni milliy va jahon adabiyotlarini o'qib, tahlil qilishga o'rgatish, o'qiganlariga ongli munosabat bildirish hamda ulardagi axloqiy-ma'naviy fazilatlarining shakllanishi va rivojlanish. Mutolaa qilish orqali og'zaki hamda yozma nutqlari rivojlantirish, matn mazmunini to'liq uqib

olishi qayta hikoyalashi, shuningdek, o'zgarar nutqini eshitib, tushunib olishi malakalari hosil qilish. O'quvchilar lug'atini boyitish, savol-topshiriqlar ustida ishlash.

Da'vat bosqichi.

Matn bilan tanishtirish. Bolalar yozuvchisi Q.Rahimboyeva haqida o'quvchilarga qisqacha ma'lumot berish.

**Qutlibeka Rahimboyeva**  
**(1952-yili tug'ilgan)**



Qutlibeka Rahimboyeva 1952 yil 9 fevralda Turkmaniston Respublikasiga qarashli Toshhovuz shahrida tug'ilgan. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi (1994). Farg'ona pedagogika institutining filologiya fakultetini tamomlagan (1974). Dastlabki she'riy to'plami — «Yuragimda ko'rganlarim» (1981). Shundan so'ng shoiraning «Uzun kunduzlar» (1984), «Uyg'onish fasli» (1989), «Ozodlik», «Ko'ksimdagi Tangritog'» kabi she'riy to'plamlari nashr etilgan. «Tohirning Zuhrosi» nomli dramatik asar ham yozgan. L. Ukrainka, M. Svetaeva kabi shoirlarning asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan. «Shuhrat» medali sohibasi (1999).

Matnni o'qituvchi o'qib beradi.

— Matnni diqqat bilan tinglang.

**BUYUKLAR VATANI**



O‘zbekiston ulug‘ odamlari – shoir-u olimlari, atoqli davlat arboblari bilan dunyoga mashhur.



Amir Temur bobomiz yurtimizda ko‘plab obodonchilik ishlarini amalga oshirgan. Madrasalar, saroylar, yo‘llar qurdirgan, bog‘lar barpo qildirgan. Temur bobomiz har qarich yerni asrashni ham o‘rgatgan.

Mirzo Ulug‘bek bobomiz osmondagi yulduzlarni sanagan. Ko‘plab yulduzlarning joyini aniqlagan.





Biz tilimizning boyligini Alisher Navoiy bobomizdan o‘rganamiz.

**Maqol:**

Ona yurti – oltin beshigi.

2. Kirish suhbat:

— Matn nima haqida ekan?

— Hayotimiz, baxtimiz, g‘ayratimiz nimaga bog‘liq ekan?

3. Topshiriq asosida ichida o‘qish.

— Matnni o‘qing. O‘zingizga ma‘nosi notanish so‘zlarni belgilang.

4. Lug‘at ishi.

Vatan –

Davlat arboblari –

Barpo qilmoq –

5. Darslikdagi savol-topshiriqlar ustida ishlash.

1. Buyuk bobolarimiz haqida nimalarni bilib oldingiz?

2. Buyuk ajdodlarimizdan yana kimlarni bilasiz?

6. Darsda o‘rganilganlarni umumlashtirish va tarbiyaviy xulosa chiqarish.

- Siz bugungi o‘qigan asarimiz orqali nimalarni bilib oldingiz?

- Biz nima uchun «Vatanimiz» deymiz?

Vatan – bu bizning kindik qonimiz to‘kilgan, biz uchun ona kabi muqaddas joy. Bizning yashab turgan shaharlarda baland va go‘zal binolar ko‘p. Bizning yurtimizda chorvachilik yetakchi o‘rinni egallaydi. Mana shuning uchun, bolalar,

katta bo'lganingizda vatan bergan topshiriqlarni va har bir ishni bajara oladigan bo'lishingiz lozim. Buning uchun faqat a'lo baholarga o'qishingiz, odobli va namunali o'quvchi bo'lishingiz zarur.

Vatan haqida maqollar keltiring:

-Bulbul chamanin,

Odam vatanin sevar.

-Ona yurtning omon bo'lsa

Rangi-ro'ying somon bo'lmas.

7. O'quvchilar faoliyatini baholash va rag'batlantirish.

### **3.3. «Suv – shifo» hikoyasini o'rgatishda “Qisqa savolga qisqa javob” o'yinidan foydalanish**

Boshlang'ich sinflarda ham badiiy asarlarni o'rganishda o'quvchi shaxsiga kuchli ta'sir qiluvchi, ularning saviyasiga mos, bilimlarning o'zlashtirilishini ta'minlovchi metod va usul turlaridan foydalanish mumkin.

«Suv – shifo» hikoyasi Erkin Malik qalamiga mansub bo'lib, u bolalar uchun juda ko'plab hikoyalar yozgan.

Erkin Malik (1941) Erkin Malik 1941 yil 10 avgustda Toshkent viloyatining Yangiyo'l tumanida tug'ilgan. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist (1998). Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutining kutubxonachilik fakultetini tamomlagan (1961). «Ular mening do'stlarim» (1964), «Qirq ikki og'ayni» (1968), «O'qilmagan sahifalar» (1970), «Ona shahrim — Toshkentim» (1971), «7a-da qayta qurish» (1991), «Bugunning qaqajonlari — ertaning qahramonlari» (1998), «Nayrangboz shaytonvachcha» (2002), «Subhidam hikoyalari» (2003), «Champo o'tli ilon» (2006) kabi kitoblari nashr etilgan.

Erkin Malik bugungi kunda ham bollar adabiyoti uchun ijod qilayotgan bolalar yozuvchisidir.

### «Suv – shifo»

Erkin Malik

Hikoyada asosan suv bilan dovalash mumkinligi haqida hikoya qilingan.

Ravshan shifokor ko'rigidan o'tayotganda kurak suyaklari qiyshiq o'sayotganligi ma'lum bo'lib qoldi.

- Endi nima qilamiz, do'xtir? - xavotirga tushdi dadasi.

- Oldini olsa bo'ladi. Buning uchun suzish bilan shug'ullanish kerak.

- Suv sovuq-ku, - deb yubordi Ravshan shoshilib.

- Sen xavotir olma, - dedi shifokor kulib. – Shahrimizda shunday suv havzalari borki, qishda ham suv i yozdagidek iliqbo'ladi.

Ota-bola xursand bo'lib, shifokor tavsiya etgan sport majmuasini izlab ketishdi.

**“Qisqa savolga qisqa javob”** o'yini orqali o'tilgan mavzu yuzasidan quyidagi savollarga bir so'z bilan javob berishlari kerak bo'ladi:

O'zbekistonning poytaxti qayer? (Toshkent)

Insonning eng yaqin do'sti nima? (Kitob)

Ravshan va uning otasi kimning xuzuriga bordilar?

Shifokor ularga qanday maslahat berdi? Nega?

Ravshan nega xavotirlandi?

Siz o'zingiz sportning qanday turi bilan shug'ullanasiz?

Ravshanning o'rnida bo'lsangiz qanday yo'l tutgan bo'lardingiz?

Hikoyadagi voqealar hayotiyliги bilan o'ziga xos. Unda inson hayoti, u bilan bog'liq hayotiy lavhalar bayon etilgan. O'quvchilar qahramonning xarakteri, undagi xususiyatlar bilan qiziqadilar.

## IV bob Bo'limdagi maqol va topishmoq ustida ishlash

### 4.1 Maqollar donishmandlik ramzi

Maqollar o'zbek xalq og'zaki badiiy ijodining qadimiy janrlaridan biridir. Ularda xalqimizning duneqarashi, jamiyatga bo'lgan munosabati va axloqiy normasi uz ifodasini topadi. Maqol-mantiqiy mushohada namunasi, odob va axloq koidalarining o'zida jamuljam etgan dono gapdir. Ular qadimdan xalq donishmandligi, aql-idroki, fikr- o'ylarining ifodasi sifatida yashab kelganlar, sinalgan, turmush tasdig'idan o'tgan tushunchalarni ifodalab, unga qanot baxsh etganlar. Maqollarning talim-tarbiyaviy ahamiyati kuchli. U kishilarni ogohlantiradi, maslahat beradi, mehnatni ulug'laydi, illatlarni hajv ostiga olib, fosh etadi<sup>1</sup>.

Ko'ramizki, maqollarda chuqur mazmun, mehnatkash xalq donoligi, milliy anana, uzoq asrlik hayot tajribalari, tabiat va jamiyat hodisalari haqidagi fikri, bahosi, mehnat natijalari mujassamlashgan. Shuning uchun maqollar mangulikka daxldordir. Maqollar ko'p jihatdan matallarga o'xshasa ham, ularning har qaysisi o'ziga xos xususiyatga ega. "Temirni qizig'ida bos", "Birlashgan o'zar birlashmagan tuzar", "Er yigitga ikki nomus-bir o'lim" kabilar tom manoli maqollar bo'lib, ularning mazmunida tugal fikr, umumiy xulosa bor. "Sulaymon o'ldi, devlar qutuldi", "Tosh qattiqmi, bosh qattiq", "Ko'rgan bilan eshitgan bir emas" kabilar matallar hisoblanadi. Chunki ularning mazmunidan umumiy xulosa, tugal fikr anglashilmaydi, balki xususiy belgining o'zigina ifodalangan. Maqollar xalq tushunchasi, hayot tajribalari, mulohazalarining umumlashma xulosasigina bo'lib qolmay, haqiqatning obrazli ifodasi, u yeki masala ustidan chiqarilgan hukmdir.

Maqol hajmi ixcham, kichik bo'lib, puxta ishlangan, keng manoni ifodalovchi obrazli nutq namunasidir. Maqolda ortiqcha gap so'z bo'lmaydi. Xar bir so'z aniq,

---

<sup>1</sup> O'zbek xalq maqollari. Toshkent 2012. 3-b.

o'z o'rnida ishlatilgan va ahamiyatli bo'lib, o'ziga xos ritm, ohang, kompozitsiyaga ega.

XI asr qomusi hisoblangan M. Qoshg'ariyning "Devonu lugatit turk" asarida keltirilgan maqollarda o'sha zamon ruhi, duneqarashi, kishilarning mehnatga munosabati turli xil shakllari o'z ifodasini topgan.

Maqollar o'zbek xalq og'zaki ijodining qadimiy ommaviy janrlaridan biridir. Bolalar xalq og'zaki ijodida maqollar yetakchi o'rinda turadi.

Xalq yaratgan g'oyat ixcham, chuqur va tugal ma'noli gaplar maqol deb yuritiladi. Maqol xalqning, bir necha avlodlarning aqlu farosati hamda turmush tajribasi, donishmandligi mahsulidir. Maqollarda hayotning achchiq-chuchugini tatib ko'rgan, turmushdagi hodisalarga aql ko'zi bilan qaraydigan, sof vijdonli, oliyjanob, dono, mehnatkash kishining biror voqea hodisadan, biror kishidan yoki biror ishdan chiqargan umumlashma xulosasi bayon qilinadi. Bu xulosa hayotda hammaga yo'l ko'rsatuvchi bo'lib xizmat qiladi. Maqollar xalqning aql-idroki, ijtimoiy-tarixiy tajribasi, kurashi hamda mehnatining badiiy ifodasi sifatida yaratiladi.

Ular asrlar davomida og'izdan-og'izga o'tib kelgan. Maqollar xalqimizning dunyoqarashi, jamiyatga bo'lgan munosabati, axloqiy normasini, tarixi va ruhiy holatini ifodalaydi.

Maqollar o'zining tuzilishi jihatidan qisqa, lo'nda, puxta, mantiqli, fikran tugallangan bo'ladi. Ular qadimdan xalq donishmandligi, aql-idroki, fikr-o'ylarining ifodasi sifatida yashab kelgan.

Maqollar, matallar, aforizmlar kishilarning, ayniqsa yoshlarning ongini o'stiradi, ularni to'g'ri, rostgo'y mehnatsevar, mard, jasur, sabotli va matonatli bo'lishga o'rgatadi. Biror jumla, gap shaklida kelgan maqolda ortiqcha so'z bo'lmaydi. Har bir so'z aniq, o'z o'rnida ishlatiladi. Fikrni qisqa, aniq qilib ifodalashga o'rgatadi.

Maqollar ma'nosining teranligi, ixcham, pishiq va puxtaligi bilan xalq og'zaki ijodining boshqa janrlari bilan farq qiladi. Shu sababdan ular bolalarni

to'g'ri, mantiqiy fikrlashga, maqsadni qisqa, ixcham va lo'nda bayon qilishga o'rgatadi<sup>1</sup>.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ifodali o'qish va ifodali nutq malakalarini hosil qilish, uni takomillashtirishda dono xalqimiz tomonidan yaratilgan maqollardan ham foydalaniladi. Maqollarni o'rganish uchun maxsus dars soati ajratilmaydi. O'qish darslarida maqollardan o'rganilayotgan badiiy tekstning mazmuni va vazifalariga bog'lab, tekst mazmuni yuzasidan xulosa chiqarishda, mustaqil ishlarda foydalaniladi.

Birinchi sinf o'qish kitobida turli mavzuda maqollar berilgan. Masalan, «Buyuklar vatani» matnidan so'ng Ona Vatanga mos «Ona yurtning – oltin beshiging» maqoli berilgan. Bu maqol mazmuni har kimning o'z vatani oltin beshik ekanligi ifodalangan.

«Yurt qalqonlari» she'ridan so'ng berilgan maqol Ona yurtning omonligi, tinchligi, unda yayrab o'sib-ulg'ayishi ifodalangan, ya'ni «Ona yurtning omon bo'lsa, Rangi ro'ying somon bo'lmas».

«Qish» she'ridan so'ng «Qish g'amini yozda ye». Ya'ni qishga har qanday ishni qoldirma, degan ma'noni anglatadi va bolalarni har fasllarning o'z xislati haqida gapirilgan.

Maqollar donishmandlik ramzi. Ular o'quvchilarni chuqur fikrlashga, fikrni ixcham va aniq, obrazli qilib ifodalashga o'rgatadi, yosh avlodni milliy istiqloq g'oyasi, urf-odatlariga sodiq, xalq merosini ko'z qorachig'iday asrash ruhida tarbiyalashda juda muhim vosita vazifasini o'taydi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ifodali o'qish va ifodali nutq malakalarini hosil qilish, uni takomillashtirishda, lug'at boyligini oshirishda dono xalqimiz tomonidan yaratilgan maqollardan ham foydalaniladi va u sharhlab beriladi.

Avval o'yla, keyin so'yla

---

<sup>1</sup> Qosimova K., Matjonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. T., TDPU. 2008.137-b.

Maqolda kishilarning o'zaro so'zlashish odobiga qat'iy rioya qilishlari, aytadigan har bir so'zi (gap)ni avval o'ylab, so'ng so'zlashi zarurligi ifodalangan. O'ylamay aytilgan so'z kishini uyalib qolishiga sabab bo'lishi mumkin. «So'zlaganing kumush bo'lsa, tek turganing-oltin», «Aytilgan so'z-xo'jayining, aytilmagan so'z-xizmatkoring».

“So'zni ko'ngilda pishirmaguncha tilga kelturma. Va har nekim, ko'ngilda bor-tilga surma” (A.Navoiy).

O'qish darslarining hammasida maqollardan foydalanish, o'quvchilarni maqollar bilan tanishtirish orqali ularga ta'lim bilan bir vaqtda tarbiya beradi.

Bolalarni do'stlikka, birodarlikka o'rgatuvchi, ularni ahil-inoq bo'lishga chorlovchi, do'stlikning buyuk kuch ekanligini ifodalaydi.

Odob-axloq, bilimning afzalligi, bunday xislatlar insonni buyuk inson bo'lishiga xizmat qiluvchi ekanligini o'rgatuvchi maqollar:

Bilim – boylik kaliti.

Oltin olma – duo ol.

Oldin o'yla – keyin so'yla.

Olim bo'lsang, olam seniki.

Sog' tanda – sog'lom aql.

Sen o'zingni maqtama,

Seni biron maqtasin.

O'zbek xalq maqollarida Ona-Vatanni sevish hamda uni har qanday ichki va tashqi dushmandan saqlash motivi asosiy o'rinni egallaydi. Vatanga bo'lgan muhabbat va sadoqat, uni qadrlash g'oyasi obrazli tarzda ifoda etiladi.

Bulbul chamanni sevar,

Odam – Vatanni.

Maqollar yosh avlodni komil inson ma'nan va jismonan barkamol bo'lishi bilan birga o'quvchilarga rostgo'ylik, do'stlik, hunar egallash, mehnatsevarlik, vatanparvarlik singari fazilatlarni singdirishda juda muhim ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Xullas, ularni Vatanimiz kelajagi uchun jon fido qila oladigan komil insonlar bo'lib yetishishlarida muhim vosita bo'ladi.

Xalq og'zaki ijod namunalari orqali o'quvchilar ezgulik, tug'riso'zlik, sofdillik, nafosat, do'stlik, o'rtoqlik, ahllik haqidagi tasavvurga ega bo'ladilar.

Savod o'rgatish davrida topishmoqlardan foydalanish maktabga dastlab qadam qo'ygan bolalarni qiziqib savod chiqarishlarida muhim vosita bo'ladi.

#### **4.2. Topishmoqning ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyati**

Xalq orasida topishmoq, jumboq, ba'zan matal, topar, cho'pchak kabi terminlar bilan yuritilib kelingan topishmoq janri o'zbek folklorida qadimdan yashab rivojlanib kelmoqda.

"Topishmoq" so'zi "top" buyruq fe'liga "-ish;-mok " yasovchilari qo'shilishi bilan chigal, murakkab, belgi xususiyati yashirin berilgan biror noma'lum narsani topish mazmunini ifodalaydigan yasama otga aylangan. Tabiat va jamiyat hodisalari kishilar oldiga ko'p murakkab jumboqlar, muammolar qo'ygan. Insonning o'sha masalalarni topishi, sirli bo'lib ko'ringan narsalarning tub, haqiqiy mohiyatini ochish uchun aql-idrok va o'tkir did talab qilingan.

Ko'p asrlik xalq donishmandligining durdonalari - topishmoqlar inson idroki, kuzatuvchanligi, poetik tasavvur qobiliyatini o'stiruvchi aqlning quvnoq o'yini, ma'naviy dam olish vositasigina bo'lib qolmay, ajdodlarimizning ruhiy olami, tarixiy o'tmishini bilishda kalit vazifasini ham o'taydi. Ular tarixiy madaniyatining bebaho hujjatlaridir. Ajoyib istioralar, yerqin qiyeslamalar obrazli ifodalar bilan jilolangan o'zbek topishmoqlari qadimiy quyeshli o'zbek elining jozibasi va o'ziga xosligini tasvirlabgina qolmay, folklor asarlari silsilasida ulkan estetik qimmatini bilan xalq ma'naviy dunesi taraqqiyatining xazinasini sifatida bizning kunlarimizda ham jamiyatimiz yaxlit madaniy hayatining topishmoq aniq narsa yeki voqelik tushunchasini ongli ravishda yashirishda, sir tutishga asoslangan kichik poetik asardir.



Tapishmoqlar xalq og'zaki ijodining kichik janrlaridan biri hisoblanadi. Bu janr asosan yesh avlodni hayetni bilishga, borliqdagi narsa-predmetlarning xususiyatlarini yedda saqlab qolishga o'rgantadi. Qadimgi paytlarda topishmoqlar cho'pchak, topmachoq, matal kabi nomlar bilan yuritilgan. Olimlarning ma'lumot berishiga qaraganda, turkman, qozoq, qirg'iz xalqlari kabi o'zbeklarda ham topishmoq aytish an'analari mavjud bo'lgan.

Topishmoqlarning mohiyati asosan istiora badiiy san'ati bilan bog'liq bo'lib, ularda topilishi lozim bo'lgan narsa-predmentning asosiy xususiyatlari haqida ma'lumot beriladi. Bu xususiyatlar topishmoq janrining xalq orasida keng ommalashuviga sabab bo'lgan. Topishmoqlarda bir yeki bir necha narsalarni topish nazarda tutilgan asarlar ham Masalan "Er tagida oltin qoziq" sabzi bo'lsa, "Tog'da talaymonni ko'rdim, Suvda Sulaymonni ko'rdim, Tuzsiz pishgan oshni ko'rdim, Yumalab yetgan toshni ko'rdim" topishmog'ida bo'ri, baliq, holvaytar, toshbaqa nomlarini topish lozimdir. Bu janr ko'pincha sher'riy tarzda ham to'qiladi.

Topishmoqlar topilishi kerak bo'lgan narasalarning paydo bo'lgan davriga ko'ra ikki xil bo'ladi:

1. Qadimgi-an'anaviy-topishmoqlar.

2 Yangi topishmoqlar.

Agar an'anaviy topishmoqlar ko'pincha mo'ri, tandir, egar, o'choq, qozon, kabi narsalar haqida bo'lsa, yangi topishmoqlarning mavzulari radio, televizor, kitob, atlas kartasi, samolyot, parovoz kabilar bilan bog'lanadi. Ba'zan an'anaviy ertaklar matnlarida ham topishmoqli lavhalar uchraydi. Yerda eng og'ir narsa nima? Uchta jumboqni yeching.....kabi parchalar ertak qahramonlari yechishi lozim bo'lgan topishmoqlar sifatida beriladi. Xalq og'zaki ijodining bu janri bugungi kunda bolalar bog'chalarida, televideniye va radiodan olib boriladigan suhbatlarda keng foydalanilmoqda.

Topishmoq xalq og'zaki ijodining eng qadimgi va boy janrlaridan biri bo'lib, ular odatda xalqning urf-odatlarini, ruhiyat hamda axloqiy-estetik

qarashlarini o'zida mujassamlashtirgan. **Topishmoq** she'riy yoki nasriy tuzilishdagi savol va topshiriqlardir<sup>1</sup>.

Topishmoq o'quvchilarni loqirlik va hozirjavoblikka o'rgatadi. Shu sababli xalq og'zaki ijodining bu janridan darslikhuda ham keng qo'llanilgan. 1-sinf „O'qish kitobi" da topishmoqlar ko'proq, har bir matn ostida keltirilgan. Bundan ko'zlangan maqsad matn mazmunini topishmoqlar asosida ham o'zlashtirilishiga erishishdir. 1-sinf „O'qish kitobi" da Tursunboy Adashboyevning «Qish» she'ridan so'ng bhlimga mos holda topishmoqlar berilgan va mavzuga juda mos tanlangan. Topishmoqlar bunday shaklda berilganda ularning javobi oson topiladi. 1-4-sinf o'qish darsliklarida „Topishmoqlar" mavzusi ostida har xil topishmoqlar ham berilgan bo'lib, ular o'quvchilarning topqirligini yanada oshiradi, tafakkurini o'stiradi. 1-2-sinf darsliklarida topishmoq javoblari ularning ostiga yozib qo'yilgan yoki rasmlar orqali berilgan. 3-4-sinflarga o'tgach esa javoblar qayd etilmagan. Buning sababi shuki, bu davrga kelib o'quvchilar topishmoqlar ustida ishlash ko'nikmalarini hosil qilgan bo'ladi.

1-sinf «O'qish kitobi» ning 12 sahifasidagi topishmoq qish fasiliga xos bo'lib, quyidagicha ifodalangan:

Qishda terlab ishlaydi,  
Boshqa mahal qishlaydi (Pechka)

Tunukani chertadi,  
Kesaklarni kertadi.  
Biroz «sho'xlik» qilgach u,  
Yerga singib ketadi (Do'l).

---

<sup>1</sup> (K.Qosimova), S.Matchonov, X.G'ulomova, Sh.Yo'ldosheva, Sh.Sariyev  
ONA TILI O'QITISH METODIKASI. Boshlang'ich ta'lim fakulteti talabalari uchun darslik. Toshkent  
2009.151-b.

Qish chog'i kapalaklar

Uchib yurar osmonda.

Qiziq, yo'qolib qolar

Kaftimga qo'ngan onda (Qorparcha).

Boshlang'ich sinflarda topishmoq janri ustida ishlanib, ularning mazmuni asosida o'quvchilarda muayyan axloqiy sifatlar shakllantirib boriladi. Topishmoqlarning tuzilishi, shakli asosida esa uning xususiyatlari, unda ishlatilgan badiiy vositalar va o'quvchilarga ta'siri alohida o'rinlidir.

Yana 15-sahifasida berilgan topishmoq o'quvchiga o'ylash bilan birga quvnoq daqiqani ham xadya etadi::

Yungi igna,

Burni tugma,

Ko'zi munchoq,

Bag'ri yumshoq (Tipratikan)<sup>1</sup>.

Topishmoq ikki qismdan iborat bo'lib, topishmoqning asosiy qismi bo'lgan javob obrazlar orqali jumboqlangan ob'ekt-narsaning otini aytib berishdan iboratdir. Uning savol-jumboq qismi tabiat, tabiat hodisalari va narsalarni, umuman, ob'ektni badiiy tus berilgan holda obrazlashtirish, tag'qoslash, o'xshatish orqali jumboqlashdan tashkil topgan. Topishmoqning jumboq qismi bilan javobi birlikda bir butunlikni tashkil etadi.

## XULOSA

Ushbu Bitiruv malakaviy ishni tayyorlash orqali biz o'quvchilarni to'g'ri talaffuzga, til ma'nolarini to'g'ri anglashga, og'zaki nutqlarining savodli bo'lishiga, Vatanimizning o'tmishi, buguni va mustaqillik yillaridagi taraqqiyoti, milliy urf-odatlarini, borliq va jamiyat haqidagi mavjud bilimlarini yanada boyitishni

---

<sup>1</sup> T.G`afforova, E.Shodmonov, G.Eshturdiyeva. "O`qish kitobi". Umumiy o`rta ta'lim . maktablarining 1-sinfi uchun darslik. "Sharq" nashyoti -matbaa aksionerlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent – 2016. 40-b.

maqsad qilib oldik. Bu maqsadni amalga oshirishda turli metodlardan va metodik ish turlaridan foydalandik. Ular o'quvchilarni o'ylashga, izlanishga, xulosalar chiqarishga undaydi, Vatan oldidagi mas'uliyatini, Vatanni sevishva ardoqlash hislarini yanada oshiradi.

Ona Vatanga sodiqlik, matonatlikka doir fazilatlarni shakllantira borish, otabobolarimizning durdona fikrlarini yod olish, ularga amal qilish, ibratli voqea-hodisalar ifodalangan matnlarni o'qish, ulardagi ma'nolarni tahlil qilish, misollar keltirish. O'quvchilarda milliy an'analarga mehr uyg'otish bugungi kunning dolzar vazifalaridan biri hisoblanadi.

Sog'lom ma'naviyatli shaxsni shakllantirishning asosi bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilariga Vatan, vatanparvarlik haqidagi tushugchalarni rivojlantirish va o'qish darsida o'quvchi fikrlarini uyg'otish, o'quv ishlariga faol qatnashishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, dars jarayonida o'quvchida uyg'ongan faollikni butun dars davomida ushlab turish, axloqiy-ma'naviy masalalarni hal etishda o'quvchi tafakkurini ma'lum maqsad sari yo'naltirish, uning aqliy faoliyatini to'g'ri tashkil etish, bolani mustaqil mulohaza yuritishga, munosabat bildirishga, xulosalar chiqarishga rag'batlantirish nazarda tutiladi.

Yosh avlodga vatanparvarlik fazilatlarni shakllantira borish, otabobolarimizning durdona fikrlarini yod olish, ularga amal qilish, ibratli voqea-hodisalar ifodalangan matnlarni o'qish, ulardagi ma'nolarni tahlil qilish, misollar keltirish. O'quvchilarda milliy an'analarga mehr uyg'otish bugungi kunning dolzar vazifalaridan biri hisoblanadi. Biz bitiruv malakaviy ishimizda shu masalalarni keng ochib berishga harakat qildik.

O'qish darslarini bolalarda go'zallikka muhabbat uyg'otadigan, poklik tuyg'ulariga ozuqa beradigan, hissiyotni o'tkirlashtiradigan, aqlni, fahm-farosatni charxlaydigan, tasavvurlarni boyitadigan, estetik didni o'stiradigan musiqa va tasviriy san'at fanlari bilan uzviy bog'langan bo'lishi kerak. O'qish, musiqa va tasviriy san'at darslarini o'zaro bog'lab uyushtirish bolalarda san'at asarlarini

to'g'ri tushunish va qadrlash ko'nikmalarini o'stiradi, o'quvchilarning shaxs sifatida ma'naviy qiyofasini shakllantirishga xizmat qiladi.

O'quvchilarni o'z nutqlarida maqollardan, hikmatli so'z va iboralardan foydalanishga, so'zlarni to'g'ri tanlashga, gap qurilishidan (so'zlarning bir-biriga bog'lanishidan) to'g'ri foydalanishga o'rgatish talab etiladi. O'qish darslarida o'quvchilarning so'zlarni adabiy qoidalarga muvofiq talaffuz etishlari talab etiladi.

Bitiruv malakaviy ishi natijalari quyidagi umumiy xulosalarni chiqarishga imkon beradi:

1) o'quvchilar bilan hikoya, she'r, maqol va topishmoqlarni ustida olib borilgan tahlillar natijasida ularning fikriy qobiliyatlari rivojlantiriladi;

2) o'quvchilar bilan olib boriladigan hikoya, she'r, maqol va topishmoqlar tahlili, albatta, vaqtinchalik, bir martalik yoki tasodifiy bo'lmasligi zarur. Aksincha doimiy, izchil olib boriladigan jarayon sifatida diqqat markazda bo'lishi darkor;

3) o'quvchilar bilan hikoya, she'r, maqol va topishmoqlarni tahlil qilishda, badiiy matnni shakl va mazmun yaxlitligi asnosida tahlil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi;

4) hikoya, she'r, maqol va topishmoqlarni tahlil qilishda har bir so'z o'z kontekstidagina turfa xil ma'no tovlanishlari bilan jilolanishini o'quvchilar ongi shuuriga singdirish emas, balki badiiy matndagi, so'zdagi ma'no tovlanishini idrok qilishga o'rgatish, til hissiga tayangan holda ularning fikriy qobiliyatlarini rivojlantirish kerak;

5) o'qish kitobi darsliklari sahifalarida yozma adabiyotimizning go'zal namunalarini tanlash va saralashga alohida ahamiyat berilishi zarur. Negaki o'quvchilarni badiiy matn tahliliga butun diqqat-e'tiborini tortish uchun tahlilga tortilayotgan matnning qay darajada badiiy bo'yoqdorligi va tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanligi muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari bugungi kun o'qituvchisi darsliklardagi materiallar bilangina kifoyalanmasligi kerak. Aksincha o'qituvchi dars mavzusiga mos bo'lgan turli xil badiiy matn bilan o'z darsini

boyitishsa, ayni mazkur badiiy matn ustida olib borilgan qizg'in tahlil orqali esa o'quvchilarning fikriy qobiliyatlarini rivojlantirishga erishiladi.

“Ta'lim to'g'risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy darsturi”ning maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan holda ta'lim tizimida yangi pedagogik texnologiya va davlat standartlari ishlab chiqildi. Ta'lim standartlari – normativ hujjat bo'lib, o'qish kitobidan o'quvchilar qanday va qancha bilim, ko'nikma va malakalar olishi aniq ko'rsatib berilgan. Ta'lim standartlari asosida ishlash boshlang'ich sinf o'qituvchisi uchun dasturiamaldir.

Bizning maqsadimiz demokratik huquqiy davlat qurish ekan, bunday jamiyat insonlar, o'quvchilarni ham axloqan, ham ma'nan boy, komil kishilar qilib tarbiyalash va erkin, mustaqil tafakkur sohibi qilish zarurdir. Shu boisdan ta'lim jarayonidagi har bir inson bu mas'uliyatli vazifaga befarq qaramasligi va faollikni o'ziga fazilat qilib olishi lozimdir.

Boshlang'ich sinf ho'uvchilarida Ona Vatanga muhabbat to'g'risidagi tushunchani shakllantirishda Sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiya masalalari yetakchi o'rinni egallaydi. Sharqona odob-axloqni yuksaltirish muhim o'rin tutadi. Shu sababli o'quvchilarda ezgu ma'naviy sifatlarni bolalikdan singdirish lozim bo'ladi.

O'rta Osiyo mutafakkirlaridan Imom al-Buxoriy, at-Termiziy, Xo'ja Ahmad Yassaviy, Burxoniddin al-Marg'iloniy, Beruniy, Ibn Sino, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddini Muhammad Boburlarning iymon-e'tiqod, axloq-odob, ta'lim-tarbiya, Ona Vatanni sevish, uni asarb-avaylash sohasidagi hikmatlarini yoshlarga o'rgatish bugungi kunning dolzarb masalalardan biri hisoblanadi<sup>1</sup>-deydi.

Xalq donishmandligi-maqollarda turmush hodisalari bilan bog'liq bo'lgan vatanparvarlik, mardlik, qahramonlik, mehnatsevarlik, do'stlik, ilm-hunar, vafodorlik kabi ideal axloq namunalari maqullanib, nodonlik, qo'rqqoqlik, egrilik, yemonlik, umidsizlik, yelg'on gapirish, yalqovlik, ochko'zlik kabi yaramas illatlar

---

<sup>1</sup> P.Мавлонова, О.Тўраева, К.Холикбердиева. Педагогика. Тошкент, «Ўқитувчи», 2002, 19-б.

qoralanadi. Bu esa o'zbek maqollarining g'oyaviy-tematik rang-barangligini ko'rsatadi<sup>1</sup>.

Shubhasiz, qadimiy ko'p asrlik tarixga ega bo'lgan xalq topishmoqlarining ildizlari insoniyat jamiyati taraqqiyetining ilk bosqichlariga borib taqaladi. Qadimiy topishmoqlarning asosida insonning dunyoni bilishga, tabiat sirlarini tushuntirishga bo'lgan intilishlari yetadi. Insonning tinib-tinchimas aqli momaqaldiroq, yashin, yemg'ir, yulduzli osmon kabi ko'plab narsa va voqelikni badiiy obrazlarda tasvirleydi. Topishmoqlar bolalarni har tomonlama yetuk, zukko va bilimdon bo'lishlarida muhim ro'l o'ynaydi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga odob-axloq to'g'risidagi matnlarni o'rgatilishi ularning ma'naviy dunyosini yuksak bo'lishini ta'minlashning ishonchli vositasi ekani tushintirib borilishi va o'quvchilar o'rganilayotgan o'gitlar va hikmatlarning kundalik hayotda qanday foyda keltirishini o'qituvchi yordamida tushunib olishlari va nutqini o'stirishga jiddiy ahamiyat berish lozim. Shu bilan birga o'quvchi o'zi o'qib, bilib olgan hikmatlarini to'g'ri aytib berishdan tashqari, amalda unga rioya qilishi kerak.

O'quvchilarni Vatan tushunchasi bilan tanishtirish, uni asrab-avaylashga o'rgatish, shuningdek, vatanimiz o'tmishi va bugungi porloq kelajagi haqida tushuncha berish o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda katta ahamiyat kasb etadi<sup>1</sup>.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1.Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони “Таълим-тарбия ва кадрлар тайёрлаш тизимини тубдан ислоҳ қилиш, баркамол авлодни вояга етказиш тўғрисида”ги 06.10.1997 й. N ПФ-1869.

2.Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси.22.12.17.

---

<sup>1</sup> O'zbek xalq maqollari. Toshkent 2012. 5-b.

<sup>1</sup> www.pedagog.uz

3. Мирзиёев Ш. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қураимиз. Т.: Ўзбекистон. НМИУ. 2017.
4. Karimov I. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish - eng oliy saodatdir. Toshkent -«O'zbekiston» - 2015.
- 5.O'zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”// “Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori” kitobida. – Т.: Sharq, 1997.
- 6.O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni// “Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori” kitobida. – Т.: Sharq, 1997.
- 7.Abdullayeva Q. va boshq. 2-sinfda o'qish darslari. –Т.: O'qituvchi, 2009.
8. Азизхўжаева Н.Н. Ўқитувчи тайёрлашнинг педагогик технологияси. – Т.: ТДПУ, 2000.
- 9.Imomov K.va boshqalar. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi.Tashkent 1990.
- 10.Jumaboev M. Bolalar adabiyoti. Toshkent. 2002.
11. Мавлонова Р.,Тўраева О., Холиқбердиева К. Педагогика. Тошкент, «Ўқитувчи», 2002.
- 12.Matchonov S. Boshlang'ich sinf o'qish darslarini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish. –Т.: Yangiyo'l poligraf servisi, 2008.
13. T.G'afforova, E. SHodmonov, G.Eshturdiyeva. “O'qish kitobi”. Umumiy o'rta ta'lim . maktablarining 1-sinfi uchun darslik. «SHARQ» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent – 2017.
- 14.Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi.: Nasaf, 2000.
- 15.Qosimova K., Matjonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. Т., TDPU. 2008.
- 16.Ro'ziyeva D., Usmonboyeva M., Xoliqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi. – Т.: TDPU, 2013.
- 17.Sayidahmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Т.: Moliya, 2003.
18. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. – Т.: O'qituvchi, 2004.



19. Umarova M., Hamraqulova X., Tojiboyeva R.. «O'qish kitobi» Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik. (2-nashri). «O'qituvchi» Toshkent 2014 yil.

20. G'afforova T., Nurullayeva Sh., Mirzahakimova Z. " O'qish kitobi" (2-sinf uchun darslik) «Sharq» nashryot-matbaa aksionerlik kompaniyasi Bosh tahririyati nashriyoti. Toshkent 2012 y.

21. G'afforova T., E.Shodmonov, G.Eshurdiyeva. "O'qish kitiobi". Umumiy o'rta ta'lim . maktablarining 1-sinfi uchun darslik. "Sharq" nashyoti - matbaa aksionerlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent – 2016.

22. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturlari (Ona tili, o'qish, matematika, atrofimizda olam va tabiatshunoslik) (1–4 sinflar) TOSHKENT -2010.

23. O`zbek xalq topishmoqlari. Toshkent 2014.

24. O`zbek xalq maqollari. Toshkent 2012.

### **INTERNET SAYTLAR**

1. [www.bilim.uz](http://www.bilim.uz).

1. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)

2. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)

3. [www.Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz)